



MILLIY ARMIYA – ONA YURT QALQONI, TINCHLIGIMIZ POSBONI!

VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!

VATANPARVAR

VATAN

Avvalboshi der Vatan,
Odam Ato der “Vatan”.
Har bandaga qo‘noq ber,
Har bandaga ber, Vatan.

Menda bori shu Vatan,
Daraxti, qushi Vatan.
Bog‘-u rog‘, gul-u g‘umoy,
Tuproq‘i, toshi Vatan.

Duo-yu shukrim Vatan,
Sano-yu zikrim Vatan.
Demishlarki, Payg‘ambar,
Iymondir, ishqdir Vatan.

Kubro tutgan tug‘ Vatan,
Temur tutgan tig‘ Vatan.
Nomard ko‘ksini yorib,
Teshib o‘tgan o‘q Vatan.

Nom-u nishondir Vatan,
Nomus-u shondir Vatan.
Agar sendan tonarman,
Parchala, yondir, Vatan.

Vatan qo‘rg‘on, qal‘adir,
Vatan dengiz, qalqadi.
Vatan sahro to‘zonli,
Vatan shamsdir, balqadi.

Gul desam, gulgun Vatan,
“Bo‘l” desa, bo‘lgum Vatan.
“Eh” desam, yigitmasman,
“O‘l” desa, o‘lgum Vatan.

Jonimga jodir Vatan.
Tanimga chodir Vatan.
Mardga qo‘noqdir, illo,
G‘animga chohtir Vatan.

Bola kulgisi Vatan,
Bog‘da gul isi Vatan.
Yurt deb jon bergan askar,
Ona yig‘isi Vatan.

Aytgil, yana ne Vatan,
Yana nima dey, Vatan?
Suv bosganda dunyoni
Nuh va kemaday Vatan.

Vatan birdir, o‘lmaydi,
Xudo birdir, qo‘llaydi.
Xudo birla Vatanning
Ikkinchisi bo‘lmaydi.

Muhammadali G‘AFFOROV,
“Vatanparvar”
O‘zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a‘zosi, shoir



IJTIMOIIY-SIYOSIIY, MA‘NAVIY-MA‘RIFIY,
HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

GAZETA 1992-YILNING
24-IYUNIDAN CHIQA BOSHLAGAN
WWW.MV-VATANPARVAR.UZ

2026-YIL 19-IYUN
№25 (3191)



Ortga qaytmas islohotlar

JANGOVAR SHAYLIK



Zamonaviy dunyoda xavfsizlikni ta'minlash, davlat suvereniteti va hududiy yaxlitligini himoya qilish har bir mamlakatning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, havo makonida yuzaga kelayotgan yangi tahdidlar, yuqori texnologiyali qurollar va uchuvchisiz uchish apparatlarining keng qo'llanilishi mudofaa tizimini muntazam takomillashtirib borishni taqozo etmoqda.

Mamlakatimizda Qurolli Kuchlarni modernizatsiya qilish, harbiy boshqaruv tizimini takomillashtirish hamda havo sarhadlarini ishonchli muhofaza qilish masalalari davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev mudofaa tizimini takomillashtirish chora-tadbirlariga bag'ishlangan taqdimot bilan tanishdi. Unda mamlakat havo mudofaasi salohiyatini yanada mustahkamlash, zamonaviy tahdidlarga munosib javob berish imkoniyatlarini kengaytirish hamda harbiy aviatsiyaning jangovar imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan ustuvor vazifalar muhokama qilindi.

So'nggi yillarda Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni rahbarligida mamlakatimiz mudofaa tizimi rivojlanishning yangi bosqichiga ko'tarildi. Xususan, havo sarhadlarimizni mustahkamlash, chegaralar daxlsizligini ishonchli himoya qilish maqsadida Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlari izchil isloh qilinmoqda.

Islohotlar natijasida qo'shinlar zamonaviy aviatsiya texnikalari, havo hujumidan mudofaa majmualari, radiolokatsiya vositalari hamda uchuvchisiz uchish apparatlari bilan ta'minlanmoqda. Bu esa havo makonidagi har qanday xavf va tahdidlarni o'z vaqtida aniqlash, kuzatish

va bartaraf etish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshirmoqda. Shu bilan birga, aviatsiya bo'linmalarining texnik holati va jangovar imkoniyatlarini yaxshilash bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmogda.

Taqdimot davomida harbiy aviatsiyaning boshqarishning raqamlashtirilgan usullarini joriy etish, razvedka va monitoring imkoniyatlarini kengaytirish, yuqori aniqlikdagi qurol-yarog'larni qo'llash samaradorligini oshirishga doir istiqbolli loyihalar ham ko'rib chiqildi.

Amaliy parvoz mashg'ulotlari ko'lami bir necha barobarga oshirilib, uchuvchilarning kasbiy mahorati va jangovar tayyorgarligi yuksaltirilmoqda. Xalqaro tajribalar asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotlar harbiy xizmatchilarning zamonaviy jangovar sharoitlarda harakat qilish ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Taqdimotda zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, vatanparvar va yuqori malakali milliy kadrlarni tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratildi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining Qarshi shahrida joylashgan Harbiy aviatsiya institutining o'quv-moddiy bazasi xalqaro ta'lim standartlari asosida tubdan modernizatsiya qilindi. Bu yerda kursantlar uchun zamonaviy ta'lim muhiti yaratilgan bo'lib, nazariy bilimlarni chuqur o'zlashtirish va

amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash uchun barcha zarur shart-sharoitlar ta'minlangan.

Institutda zamonaviy o'quv trenajyorlari, modellashtirish va simulyatsiya vositalari joriy etilgan. Nazariya va amaliyot uyg'unligi asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotlar kursantlarga aviatsiya sohasining murakkab jihatlarini chuqur anglash, turli vaziyatlarda tezkor va to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish imkonini bermoqda. "Ustoz-shogird" an'anasi asosida kursantlar harbiy aerodromda tajribali uchuvchilar va mutaxassislar rahbarligida amaliy mashg'ulotlarda ishtirok etib, parvoz tayyorgarligi va aviatsiya texnikasidan foydalanish bo'yicha bilimlarini mustahkamlamoqda.

Shuningdek, taqdimotda havo sarhadlarini himoya qilishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish, harbiy aviatsiya bo'linmalarini zamonaviy xavf-xatarlar xususiyatidan kelib chiqqan holda qayta tashkil etish bo'yicha taklif etilayotgan chora-tadbirlar muhokama qilindi. Xususan, razvedka, kuzatuv va nazorat tizimlarini takomillashtirish, uchuvchisiz uchish apparatlaridan keng foydalanish hamda yagona axborot maydonida ishlaydigan boshqaruv tizimlarini joriy etish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Bu ishlar Harbiy havo kuchlarining jangovar qobiliyati va amaliy imkoniyatlarini yanada oshirishga, qo'shinlarning tezkorligi, harakatchanligi va har qanday zamonaviy tahdidlarga munosib javob berish salohiyatini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, havo makonini uzluksiz nazorat qilish, ehtimoliy xavflarni barvaqt aniqlash va bartaraf etish imkoniyatlari yanada kengayadi.

Taqdimotda milliy harbiy kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish masalalari ham ko'rib chiqildi. Ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish, ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, kursantlarning xorijiy tillar va zamonaviy axborot texnologiyalari bo'yicha bilimlarini oshirish orqali yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash vazifalari belgilab berildi.

Shuningdek, **harbiy tibbiyot sohasida Turkiya bilan hamkorlikni rivojlantirish masalasi ham muhokama qilindi.** Prezidentimizning joriy yilning yanvar oyida Turkiyaga

amalga oshirgan davlat tashrifi doirasida ikki mamlakat hukumatlari o'rtasida harbiy tibbiyot sohasida ta'lim va hamkorlik to'g'risida bitim imzolangan edi.

Taqdimotda ushbu bitim doirasida amalga oshirilishi taklif etilayotgan choralar haqida atroflicha axborot berildi. Unga ko'ra, mutaxassislarni davolash ishi, stomatologiya, farmasevtika, profilaktika, tibbiy kasb-hunar va hamshiralik oliy ta'lim yo'nalishlarida, shuningdek magistratura va aspirantura bosqichlariga tayyorlash masalalari nazarda tutilmoqda. Bundan tashqari, harbiy shifokorlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini muntazam oshirib borish orqali tibbiy xizmat sifatini yanada yuksaltirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bitim doirasida harbiy tibbiyot sohasida zamonaviy tashxis va davolash usullarini joriy etish, yuqori texnologiyali tibbiy jihozlardan samarali foydalanish bo'yicha tajriba almashish ham muhim yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Bu esa harbiy tibbiyot muassasalari faoliyatini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish va sohadagi ilg'or yutuqlarni amaliyotga keng tatbiq etish imkonini beradi.

Bundan tashqari, tibbiyotning ilmiy yo'nalishlarida hamkorlik qilish, seminar, kongress va simpoziumlar o'tkazish, o'qituvchi, maslahatchi, ilmiy xodim va talabalar almashinuvini yo'lga qo'yish, qo'shma mashg'ulotlar tashkil etish, bemorlarni birgalikda davolash hamda tibbiyot muassasalarini tashkil etish bo'yicha hamkorlikni kengaytirish rejalashtirilmoqda.

Shu bilan birga, harbiy xizmatchilar salomatligini muhofaza qilish, jarohatlangan va og'ir kasalliklarga chalingan bemorlarni reabilitatsiya qilish sohasidagi hamkorlikni kengaytirish, harbiy gospitalar faoliyatini takomillashtirish va favqulodda vaziyatlarda tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha qo'shma dasturlarni amalga oshirish masalalari ham ko'rib chiqildi.

Mazkur tashabbuslar ikki mamlakat o'rtasidagi strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash, harbiy tibbiyot sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash va zamonaviy tibbiy xizmat



USTUVOR VAZIFA

ko'rsatish tizimini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, taqdimotda mudofaa ishlari organlarida chaqiriluvchilarni qayd etish, tibbiy va chaqiruv komissiyalari faoliyatini raqamlashtirish bo'yicha takliflar ham ko'rib chiqildi. Mazkur jarayonlarning shaffofligi va tezkorligini oshirish, fuqarolar uchun qulaylik yaratish muhimligi ta'kidlandi.

Xususan, chaqiruvchilar haqidagi ma'lumotlarni yagona elektron bazaga jamlash, tibbiy ko'rik natijalarini raqamli shaklda yuritish, chaqiruv jarayonlarini onlayn monitoring qilish hamda davlat idoralari o'rtasidagi ma'lumot almashinuvini avtomatlashtirish bo'yicha takliflar bildirildi. Bu esa inson omilini

kamaytirish, ortiqcha qog'ozbozlikka barham berish va xizmatga chaqirish jarayonlarining ochiqqligi hamda samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali chaqiruvchilar va ularning ota-onalari uchun interaktiv xizmatlarni yo'lga qo'yish, zarur ma'lumotlarni tezkor olish imkoniyatlarini kengaytirish masalalari ham muhokama qilindi. Bu fuqarolarning davlat xizmatlaridan foydalanish darajasini oshirish va murojaatlarni ko'rib chiqish muddatlarini qisqartirishga zamin yaratadi.

Prezidentimiz qo'shinlarning jangovar shayligi va tayyorgarligini oshirish, harbiy boshqaruv va ta'lim tizimiga ilg'or tajribalarni joriy etish bo'yicha ustuvor vazifalarni belgilab berdi. Ayniqsa, harbiy xizmatchilarning

kasbiy mahoratini muntazam oshirish, zamonaviy qurol-yarog' va texnikadan samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlarini yangi bosqichga olib chiqish muhim vazifa sifatida qayd etildi.

Ta'lim muassasalarida o'quv dasturlarini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, raqamli texnologiyalar va innovatsion o'qitish usullarini keng joriy etish, yuqori malakali harbiy kadrlar tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berildi. Shu bilan birga, harbiy ilm-fanni qo'llab-quvvatlash, istiqbolli ilmiy ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etish va yosh mutaxassislarining tashabbuslarini rag'batlantirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi.

Taqdimotda mamlakatimiz mudofaa salohiyatini yanada mustahkamlash, Qurolli Kuchlarning jangovar shayligi va tezkor harakat qilish imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan keng qamrovli islohotlar muhokama qilindi. Havo hujumidan mudofaa va harbiy aviatsiya tizimini modernizatsiya qilish, harbiy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, milliy kadrlar tayyorlash sifatini yuksaltirish hamda

zamonaviy raqamli texnologiyalarni boshqaruv jarayonlariga joriy etish bu boradagi muhim ustuvor vazifalar sifatida belgilandi.

Shuningdek, harbiy tibbiyot sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish, ilg'or tajribalarni amaliyotga tatbiq etish va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash bo'yicha belgilangan chora-tadbirlar mamlakatimiz harbiy tibbiyot tizimini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Eng muhimi, mazkur islohotlar milliy xavfsizlikni ishonchli ta'minlash, davlatimiz havo sarhadlari daxlsizligini mustahkamlash, harbiy xizmatchilarning kasbiy salohiyatini oshirish va Qurolli Kuchlarning zamonaviy qiyofasini shakllantirishga qaratilgan izchil siyosatning amaliy ifodasi hisoblanadi. Belgilangan vazifalarning samarali ijrosi mamlakatimiz mudofaa qudratini yanada yuksaltirish, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

**Leytenant
Mansurbek JABBOROV,
"Vatanparvar"**



Taqdimot

YURT QAYG'USIDA 365 KUN

Mudofaa vazirligi markaziy apparatida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2025-yildagi sermahsul faoliyati aks etgan "Yurt qayg'usida 365 kun" nomli kitob taqdimotiga bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi.

Unda mudofaa vazirining o'rinbosari general-mayor Hamdam Qarshiyev, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari Otabek Hasanov, "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalar bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist Salim Doniyorov va mudofaa vazirining maslahatchisi Olim O'sarov



mamlakatimizda kechayotgan islohotlar ortga qaytmasligi, bular har bir yurttdoshimiz hayotida o'z ifodasini topayotgani, bugun Vatanimiz jahonda Yangi O'zbekiston sifatida tobora shuhrat qozonib borayotganini ta'kidladi.

Tadbirda qayd etilganidek, "Yurt qayg'usida 365 kun" nomli kitob O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil davomidagi serqirra faoliyati, davlat



boshqaruvi, xalqaro diplomatiya, iqtisodiy islohotlar, ekologik barqarorlik, ijtimoiy himoya, ilm-fan, ta'lim va madaniyat sohalarida amalga oshirgan ishlari hujjatli manbalar, tahliliy sharhlar va fotolavhalar asosida jamlangan keng qamrovli to'plam hisoblanadi.

To'plamning asosiy konsepsiyasi mamlakat taraqqiyotini davlat va jamiyat hayotidagi real o'zgarishlar,



strategik qarorlar va inson qadri ustuvor bo'lgan siyosiy yondashuvlar asosida ochib berishga qaratilgan. Nashrda 2025-yil davomida olib borilgan keng ko'lamlı islohotlarning mazmun-mohiyati izchil yoritilgan.

Shuningdek, mazkur kitobda davlat rahbarining bevosita xalq bilan muloqotlari, hududlarga tashriflari, xalqaro sammit va muzokaralardagi ishtiroki, strategik sheriklik aloqalari,



ekologiya, energetika, raqamli texnologiyalar, mudofaa, bunyodkorlik siyosati, ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotga oid tashabbuslari yaxlit tarixiy jarayon sifatida talqin etilgan.

"Yurt qayg'usida 365 kun" nashri keng kitobxonlar qatori Mudofaa vazirligi tizimida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilar va Qurolli



Kuchlar xizmatchilari uchun Yangi O'zbekistondagi islohotlar jarayonlarini chuqur o'rganishida muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Tadbir doirasida kitob yarmarkasi o'tkazilib, yurt posbonlari uchun yangi asarlar bilan tanishish imkoniyati yaratildi.

**Kapitan
Dilshod RO'ZIQULOV,
"Vatanparvar"**

Mardi maydonlar

QOYALAR HAM

“

Bultur “Zuv tosh”ga bordim. Aytishlaricha, undan hamma ham chiqa olmas ekan. Yo‘q, u osmono‘par cho‘qqimas. Aksincha, past – nishabroq qoya. Ammo sirti haddan tashqari silliq – xuddi pichoqning tig‘iga o‘xshaydi. Lekin uni zabt etish unchalik osonmas.



Qolaversa, “Zuv tosh”ning o‘z qoidasi bor: yugurib chiqish kerak. Chiqayotganda esa bor ovozda “zuv!” deb baqirish shart. Eng muhimi, hech narsani ushlaymay, faqat oyoq va iroda kuchiga tayanib, tepaga yetib olish lozim. Bor gap shu. Osonmi? Ha, osondek ko‘rinadi. Qisqasi, kaminangiz ham xuddi shu hisga aldandi. Qiziqish va uddalay olishga bo‘lgan ishonch ustun keldi. Avvaliga hammasi joyida edi. Tepalikka qarab yugurdim. Ammo tog‘ odamning shoshqaloqligini xush ko‘rmas ekan-da. Bir necha qadamdan keyin oyoqlarimdagi kuch so‘na boshladi, nafasim bo‘g‘ildi. Har bir qadam avvalgisidan og‘irroq ko‘rinish olgandi. Go‘yo qoya meni sinayotgandek, irodamning qay darajada pishiqligini o‘lchayotgandek bo‘ldi.

Shunday qilib, sinovdan o‘ta olmadim. Yutqazdim.

Ha, inson ba‘zan tog‘ bilan emas, o‘zi bilan kurashadi. O‘sha kuni tosh ustiga o‘tirib, shuni angladimki, har qanday cho‘qqi avval qalbdagi zabt etiladi.

Aytgancha, Mudofaa vazirligi “Oltinkon” tog‘-ovul bazasiga borganmisiz? Yo‘qmi? Unday bo‘lsa, imkoniyat topib, albatta, bir o‘ting. Chunki bu yerda nafaqat ko‘z, balki qalb ham orom oladi. Osmonga bo‘y cho‘zgan qoyalar, bag‘irlaridan shamollar qo‘shiq aytib o‘tadigan tog‘lar, musaffo havo va cheksiz sokinlik kishini bezovtalikdan xalos etadi. Ishonch beradi.

Harbiy xizmatchilar bu yerda kundalik mashg‘ulotlarni olib boradi. Yaqinda ular bilan cho‘qqilarga chiqib-tushish, tog‘ yonbag‘irlarida taktik harakatlarni olib borish bo‘yicha yana amaliy o‘quvlar o‘tkazildi. Mashg‘ulotlarga Sharqiy harbiy okrugdagi azamatlar jalb etildi.

Cho‘qqilar bag‘rida joylashgan o‘quv joylarida yigitlar tomonidan vazifalar mohirona bajarildi. Qiyaliklarda dadil harakatlar olib borildi. Qoyalar birma-bir zabt etildi. Qo‘llar toshga mahkam yopishib, nigohlar faqat yuqoriga qadaldi. Ha, tosh bilan harbiyning irodasi bir-biriga o‘xshab ketadi. Nega, deysizmi? Asrlar davomida shamollar zarbasiga, qor-yomg‘irlarga bardosh berib kelayotgan xarsangtoshlar qanday mustahkam bo‘lsa, Vatan himoyachilarining matonati ham xuddi shunday sinmasdir. Tosh tashqi kuchlarga taslim bo‘lmaydi. Yurt o‘g‘lonlari esa ichki qo‘rquvlarini yengadi. Toshning bag‘rini vaqt yemirolmagani kabi mardlarning so‘nmas irodasini mashaqqatlar sindira olmaydi. Birini tabiat tarbiyalagan bo‘lsa, ikkinchisini burch, qasamyod va ota-onasidan o‘tgan meros – Vatanga



muhabbat, zaminga sadoqat hissi ushlab turadi, tarbiyalaydi.

– Tarbiya tarbiyani boshlaydi.

– Boshlamaganida hammasi tugagan bo‘lar edi.

– Tugasinmi?

– Tugamaydi. Tugashiga yo‘l qo‘ymaydiganlar bor.

– Borlar, hamisha bor bo‘lsin!

Chalg‘idim, a? Mayli. Bu ichki ovoz edi. Ha, ba‘zida u borligini bildirib turadi.

Aytgancha, hech o‘ylab ko‘rganmisiz? Inson qalbi ham tog‘larga o‘xshaydi. Unda ham dovonlar, jarliklar, yengib o‘tilishi kerak bo‘lgan balandliklar bor. Har kimning o‘z “Zuv tosh”i mavjud. Kimdir qo‘rquvini yengadi, kimdir shubhasini, yana boshqa bir inson taqdir sinovlarini mardonavor ortda qoldiradi. Ammo har qanday cho‘qqiga olib chiqadigan yagona kuch – iroda va ishonch.

Harbiy xizmatchilar ana shu haqiqatni har kuni amalda isbotlab keladi. Ular uchun har bir mashg‘ulot oddiy vazifa emas. Bu jasorat maktabi. Bu matonat darsi. Bu yurt oldidagi muqaddas burchga yana bir qadam yaqinlashish, uning tinchligi va xavfsizligini gardaniga olish hissini jo‘sh urishidir.

Qoyalarga tirmashib chiqayotgan harbiylarga qaytsam: yigitlarning harakatida jasorat, har bir qadamida ishonch, har bir nigohida o‘chmas va mudom porlab turgan sadoqat mujassam edi. Ularning shovqinsiz tashlagan qadamida chin farzandlik va ichgan qasamyodi ochiq ko‘rinib turadi.

– Hamma ham qasamyodini olib yurolmaydi.

– Yurmagani uchun ham qasamxo‘r bo‘ladi.



KRHX. oddiy askar Shahzod AMINOV suratga olgan

QARSAK CHALADI...

Undaylar ketadi. So'ng tuproq hidini qo'msaydi. Ammo bunda kech bo'ladi. Tun bo'ladi. Hayotini qorong'ilik egallaydi. O'lmay turib, o'ladi. Joni har kuni kekirdagiga tiqiladi.

Biroq chiqmaydi, chiqarolmaydi.

– Chiqmasin! Qiynalsin!

– Undaylarga Vatan ostonasi yo'q.

Ostonani muqaddas bilganlar, hatto unga gard yuqishidan xavotirda bo'ladi. Asrab-avaylaydi. Jonini o'rtaga tashlaydi.

– Kerak bo'lsa, ol! Lekin bu

zaminga chang oyoqlaringni bosma.

– Bosmaydi, bosolmaydi.

Sindiradi.

Ha, qo'ymaydi. Mardlar mardonavor chiqadi. Ko'ksini qalqon qilib, o'shqiradi – arslonga aylanadi. Bu yurtning zarra tuprog'i uchun borini, hayotini bag'ishlaydi. Ana shuning uchun ham qahramonlar zanjiri zanglamaydi. Uzilishiga yo'l qo'yilmaydi. Tarbiya mudom beriladi.

Chunki bu hammasi – vatanparvarlikning asosiy kaliti.

Qarsillagan ovoz qoyalarga urildi. Uzoqdan tog' chumchug'i qanot qoqib, bodom shoxiga borib qo'ndi. Mashg'ulot rahbari mamnun jilmaydi:

– Keyingi nishon ham yo'q qilinsin!

Pastda – tik qoya etagidagi tosh biroz siljidi. Qadam olishlar yanada sokinlashdi. Bulturidan qolgan xas-xashaklar qarsillamay, tin oldi.

Aloqa vositasining vishillagan ovozi yanada pasaytirildi. Merganning miltig'idan tag'in patron uchib chiqdi.

– Harakat boshlansin!

Hammasi qayta jonlandi. Har tomondan hujumga kirishildi. Toshlar tomoshabinga aylandi. Qoyalar qarsak chaldi. Porox hidi havol og'zida tuman ko'rinishida paydo bo'ldi. Tulki quloqlarini orqaga qayirib, sakrab-sakrab qochdi.

– Qochadi-da.

– Qochsinmi?

Ha, bu o'lka "tulklar" uchun doim begona bo'lgan.

– Yashasin, sodiqlar!

– Yashasin, hayotga mas'ullar!

Ey, bu hislar qachon jilovga keladi? Kelsin-u, ammo haqiqatni tan olsin. Boisi mardlarning jasorati shunday bo'ladi. Ularning shijoatini har sahifa ham ko'tarolmaydi. Doston bo'lsin!

Qo'shiqqa aylansin!

– Yurtini sevganlar hamisha e'zozlagan.

– Yurtparvarlar bor bo'lsin!


Shunday, aka. "Zuv tosh"ning timtalanagan bag'rida o'tirib, o'zim uchun muhim haqiqatni anglagandim: tinchlik osonlikcha ta'minlanmaydi. Biz xotirjam yashayotgan har bir kun ortida minglab chin bahodirlarning mashaqqati, bedor tunlari va fidokorona xizmati mujassam. Ular tog'lar kabi sobit, qoyalar kabi mustahkam.

Ehtimol, shuning uchun ham tog'lar insonni o'ziga rom etadi. Chunki qoyalar bag'rida matonat yashaydi. Va ana shu matonatni "Oltinkon" qoyalarida qayta-qayta mashq qilayotgan Vatan himoyachilari timsolida doim ko'raman. Balki, shuning uchun ham ularning irodasi toshdan qattiq, qalbi esa tug'ilgan tuprog'iga yuksak muhabbat bilan to'lib-toshar.

– Toshganlar bor bo'lsin!

– Yashasin, bedorlar!

Kapitan Shohrux SAIDOV,
"Vatanparvar"



Vatanning buyuk farzandlari



QALAMDAN ILICHGACHA: MARSHAL ALIXONTO'RA SOG'UNIYNING ALAMLI QAYG'USI

Tarix chorrahalarida millat ozodligi va imperiyalar
o'yini kishanidagi sarkarda qismati

*"Umidsiz bo'lma, Sog'uniy, umiding ko'zgusi bordur,
Qorong'i kecha so'ngidan quyoshning chiqqusi bordur".
Alixonto'ra SOG'UNIY*

Tarix sahifalari faqat g'alabalar va mag'lubiyatlardan iborat emas, u ko'pincha buyuk g'oyalar yo'lida qurbon bo'lgan shaxslarning fojialarini ham o'z bag'riga yashiradi. XX asr Markaziy Osiyo xalqlari ozodlik harakatining eng yirik, eng nufuzli va eng murakkab siymolaridan biri – din ulamosi, davlat arbobi, tibbiyot bilimdoni, bevosita Sharqiy Turkiston Respublikasining birinchi Prezidenti hamda marshali Alixonto'ra Sog'uniy. Bugungi kunda uning shaxsiyati, ijtimoiy-siyosiy faoliyati va fojiali hayot yo'li ko'plab ilmiy hamda badiiy-publitsistik tadqiqotlarning diqqat markazida turibdi.

Xususan, Yoqubjon Xo'jamberdiyevning xalq xotiralari va real manbalarga asoslangan hujjatli ma'lumotlari hamda tarixchi olim Feruza Shokirovaning Milliy uyg'onish davri adabiy-tarixiy manbalari, jumladan Sog'uniy merosi bo'yicha olib borgan chuqur dissertatsion tadqiqotlari ulamoning hayot yo'lini butun murakkabligi bilan anglash imkonini beradi.

Alixonto'ra Sog'uniy oddiy bir siyosiy rahbar emas, balki chuqur diniy va dunyoviy bilimga ega bo'lgan strategik tafakkur egasi edi. U umr bo'yi Turkiston xalqlarining boshiga tushgan qora kunlarni, millatning parchalanib ketishini va mustabid tuzumlar ostida ezilishini chuqur iztirob bilan kuzatdi va unga qarshi amaliy kurash olib bordi. Uning butun faoliyati mohiyatan sof islomiy ma'rifat, ilm-fan va insonparvarlik asoslaridan boshlanib, asrning eng dahshatli va makkor tuzumi hisoblangan "sovet" maxfiy xizmatlarining siyosiy kirdikorlari va tutqunligi ostida fojiali yakun topdi.

Alixonto'ra Sog'uniy 1885-yilda qadimiy Bolosog'un (*hozirgi To'qmoq*) shahrida ma'rifatli oilada dunyoga keldi. Yoshligidan islom dini asoslarini, arab, fors tillarini hamda Sharq mumtoz adabiyotini mukammal egalladi. Keyinchalik Makka, Madina va Buxoro madrasalarida tahsil olib, nafaqat din ilmi, balki tibbiyot, astronomiya va tarix fanlarida ham chuqur bilimga ega bo'ldi. Bu davr Turkiston o'lkasida jadidlik va Milliy uyg'onish g'oyalari gurkirab yashnayotgan, xalq o'zligini anglay boshlagan davr edi. Tarixchi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida alohida qayd etilganidek, **Sog'uniy jadid ma'rifatparvarlarining qarashlariga, xususan matbuot orqali xalqni uyg'otish chorlovlariga katta xayrixohlik bilan qaradi. U o'zining ijtimoiy chiqishlarida va xalq orasidagi suhbatlarida millatning qoloqlikdan qutulishi faqat ilm va ma'rifat orqali bo'lishini tinimsiz targ'ib etdi.**

Biroq 1916-yilda Oq podshoning Turkiston xalqini mardikorlikka olish to'g'risidagi mash'um farmoni o'lkani larzaga keltirdi. Sog'uniy bu adolatsizlikka va millat yoshlarining imperiya manfaatlarini yo'lida qurbon qilinishiga jim qarab tura olmadi. U Andijon, Bishkek hamda To'qmoqdagi xalq qo'zg'olonlarining ma'naviy yetakchilaridan biriga aylandi. Boylarning o'z farzandlari o'rniga kambag'allarni pul evaziga urush alangasiga jo'natayotganidan g'azablendi va adolat talab qildi. Qo'zg'olon chor hukumati tomonidan shafqatsizlarcha bostirilgach, ta'qib va o'lim xavfidan qochib, Sharqiy Turkistonga – Qashg'arga o'tishga majbur bo'ldi. Bu qochqinlik va surgunlik uning hayotidagi uzoq davom etadigan muhojirot hamda Vatan sog'inchining muqaddimasi edi.

Yoqubjon Xo'jamberdiyevning tarixiy faktlarga asoslangan qaydlari va F. Shokirovaning ilmiy xulosalarida Sharqiy Turkiston (*Shinjon*) hududining XX asr o'rtalaridagi ahvoli geosiyosiy qassobxonaga o'xshatiladi. Bu hudud strategik joylashuvi va boy tabiiy resurslari sababli dunyoning eng yirik imperiyalari – Buyuk Britaniya, AQSh, Yaponiya, Gomindan Xitoy va eng asosiysi, Stalin boshchiligidagi sovet Ittifoqining manfaatlarini to'qnashgan o'ta xavfli maydon edi. Sovet hukumatiga Shinjon faqat geosiyosiy bufer hudud sifatida emas, balki o'zining yadroviy dasturi – atom bombasi yaratish loyihasi uchun eng zarur bo'lgan xomashyo: uran, volfram va titan konlari uchun kerak edi.

Alixonto'ra Sog'uniy o'zining mashhur "Turkiston qayg'usi" asarida va o'z davridagi nutqlarida mazkur imperiyalar xalqning ozodlik kurashidan faqat o'z manfaatlarini yo'lida foydalanayotganini fosh qilgan edi. U Sharqiy Turkiston xalqini bir necha bor aldagan Gomindan ma'murlariga ham, sovetlarning soxta va'dalariga ham ishonmaslikka chaqirdi. Chunki u sovet rejimining o'z ichkarisida (*G'arbiy Turkistonda*) dinni qanday yo'q qilgani, ziyolilarni qatag'on etganiga shaxsan

guvoh bo'lgan va bu tajribadan to'g'ri xulosa chiqargan edi.

"Mustabid hukumatlar o'z manfaatlarini yo'lida bir qo'li bilan qo'zg'olonchilarga qurol ulashsa, ikkinchi qo'li bilan ularning boshini kesish uchun raqiblari bilan yashirin bitimlar tuzadi. Turkiston xalqining fojiasi – uning soddaligi va o'z dushmanlarining soxta muruvvatiga ishonishi", Alixonto'ra Sog'uniy xotiralaridan.

Sog'uniyning fikricha, milliy ozodlik harakatlarining muvaffaqiyatsizlikka uchrashidagi eng katta ichki omil – ittifoqsizlik va mahalliy rahbarlarning siyosiy kaltafahmli edi. U 1931-yilgi Qumul qo'zg'oloni va Xo'janiyoz hoji harakatlarining inqirozini chuqur tahlil qildi. Xo'janiyoz hojining sovet agenti va Shinjon diktatori Shon Shi Sayning yolg'on va'dalariga ishonib bitim tuzishi, oqibatda 1930-yillar oxirida minglab vatanparvarlarning qatag'on qilinishiga olib kelganini o'z asarlarida achchiq alam bilan bayon etdi.

1944-yilga kelib, vaziyat o'zgardi. Ili okrugida boshlangan kuchli xalq qo'zg'oloni natijasida Sharqiy Turkiston Vaqtli Hukumati tuzildi va Alixonto'ra Sog'uniy yakdillik bilan ushbu hukumatning Prezidenti hamda Milliy armiya Oliy qo'mondoni (marshali) etib saylandi. Bu tarixiy g'alaba millat uchun mustaqillik va o'zlikni tiklash yo'lidagi eng yorug' umid edi. Sog'uniy boshchiligidagi hukumat qisqa vaqt ichida davlat tuzilmalarini shakllantirdi, milliy valyutani muomalaga kiritdi va nizomiy armiyani tashkil etdi. Biroq bu mustaqillik Moskva va Nankinning (*Gomindan hukumati*) rejalariga mutlaqo kirmas edi. Stalin Shinjonda to'liq mustaqil, islomiy tamoyillarga asoslangan kuchli davlat shakllanishidan dahshatga tushdi, chunki bu holat G'arbiy Turkistondagi (*O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston*) sovet mustamlakasi ostidagi xalqlar uchun ham zanjirni uzish signaliga aylanishi mumkin edi.

Sog'uniy atrofida sovet maxsus xizmatlarining (NKVD/MGB) josuslik

tarmoqlari o'ta faol ish olib bordi. Xalq qo'mondonining qat'iyyati, uning Xitoy bilan sovet vositachiligisiz to'g'ridan to'g'ri ittifoq tuzishga intilishi va uran konlarini sovetlarga mutlaqo tekinga berib qo'ymaslik borasidagi qat'iyy pozitsiyasi uning taqdirini hal qildi. **1946-yilning iyun oyida Sharqiy Turkiston xalqi o'z yetakchisining ortidan g'alaba sari borayotgan bir paytda Alixonto'ra Sog'uniy sovet maxfiy xizmati xodimlari tomonidan G'ulja shahridan o'ta maxfiy ravishda o'g'irlab ketildi.**

U sobiq Ittifoq hududiga olib o'tilib, Toshkentda uy qamog'iga olindi. Bu oddiy qamoq emas, balki shaxsiyatini, tarixiy rolini va siyosiy ovozi butunlay o'chirishga qaratilgan ma'naviy asirlik edi. U o'zi asos solgan respublika, qurolli safdoshlari (*Abdulkarim Abbosov, Is'hoqbek Mononov kabi shaxslar*) sovetlar va Xitoy kommunistlari o'rtasidagi makkorona kelishuvlar qurboni bo'lganini, so'ngra "sirli aviahalokatda yo'q qilinganini" asirlikda turib, cheksiz qayg'u bilan eshitdi. Ushbu asirlik yillari Sog'uniy qalbining eng og'ir va ayni paytda mag'rur lahzalari edi. U mahbuslikda ham taslim bo'lmadi, iymonini, millat kelajagiga bo'lgan ishonchini yo'qotmadi.

Alixonto'ra Sog'uniy umrining qolgan qismini Toshkentda o'ta qattiq nazorat ostida yashagan bo'lsa-da, vaqtini bekor o'tkazmadi. **U ma'naviy xazinaga aylanib ulgurgan "Turkiston qayg'usi" asarini yozdi, Ahmad Donishning "Navodir ul-vaqoe" asarini, shuningdek Amir Temurning "Temur tuzuklari" kitobini fors tilidan o'zbek tiliga yuksak mahorat bilan tarjima qildi.**

Sog'uniy 1976-yilda Toshkentda vafot etdi va Shayx Zayniddin bobo (*Ko'kcha*) qabristoniga dafn qilindi. Uning hayoti va kurashi bugungi mustaqil davlatimiz avlodlari uchun ulkan saboqdir. Bolalikdan boshlangan sof iymon va ozodlik g'oyasi sovet imperiyasining temir panjaralarida ham sinmadi. Alixonto'ra Sog'uniyning millat erkiga bo'lgan boqiy sog'inchi bugungi hurrligimizning qadriga yetishga undayveradi.

**Bahromjon XUDOYBERDIYEV,
Erkin Vohidov ijod maktabi
tarix fani o'qituvchisi**

“ALPOMISH”

DOSTONIDA

SOLIQ VA JUZYA TALQINI

“Alpomish” dostoni Sharq xalqlari, ya’ni o’zbek, qoraqalpoq, qozoq, boshqird va tog’li oltoy xalqlarining folklori va adabiyotiga xos yirik epik asardir. Doston X–XI asrlarda yaratilgan, lekin uning o’zbek varianti XIV–XVII asrlarda yaratilgan bo’lib, unda qahramonlik, mardlik, vatanparvarlik, turli elatlar va xalqlarning birodarligi, sevgi va sadoqati, oila mustahkamligi va urug’ birligi hamda boshqalar madh etilgan.

O’zbek xalq baxshilaridan yozib olingan “Alpomish” dostonining 30 dan ortiq namunasi bor, lekin ular orasida Fozil Yo’ldosh o’g’lidan yozib olingani, ayniqsa qimmatlidir.

Asarning bosh qahramonlaridan biri Boybo’ri o’n olti urug’ Boysun – Qo’ng’irot elining shohi, ya’ni davlat boshlig’i bo’lgan. Boybo’ri ukasining nomi Boysari bo’lib, u Boybo’ri mulkida, Boysun–Qo’ng’irot elining boyi bo’lgan.

Boysarining moli ko’p edi, bu holat dostonida quyidagicha tasvirlanadi: “Boysarining yilqisining soni shul edi: to’qson to’qay yilqisi bor edi. To’qson to’qay degani – yilqisi har yerlarda, to’qaylarda, tog’larning daralarida, to’qayli yerlarda yoyilib yurur edi. To’qaylarda yilqisi yoyilib yurgani uchun Boysarining to’qson to’qay yilqisi bor, der edi. Lekin yilqisining – molining sonini hech kim bilmas edi”.

Boybo’rining o’g’li Hakimbek bo’lib, yetti yoshida bobosidan qolgan o’n to’rt botmon birichdan bo’lgan parli yoy bilan Asqar tog’ining katta cho’qqilarini yulib o’tgani uchun unga Alpomish deb ot qo’yiladi.

Hakimbek bir kuni baxillik va saxiylik to’g’risida yozilgan kitobni o’qib o’tirar ekan, ota-bola o’rtasida baxil va saxiy kishilardan gap chiqadi. **Hakimbek otasi Boybo’riga:**

– Vaqt-bevaqt birovnikiga mehmon kelsa, otiga joy berib, mehmonning ko’nglini xushlab jo’natsa, bu kishi saxiy ekan; agar joyi bo’la turib, joy bermasa, mehmonni ko’ndirmay jo’natsa, bu kishi baxil ekan. Kishining moli zakotga yetsa va zakot bersa, bu odam saxiy ekan. Agar zakot bermasa, bu kishi ham baxil ekan deb aytadi.

Bu so’zni Boybo’ri Hakimbekdan eshitib, fikr qilib:

“Men o’n olti urug’ Qo’ng’irot elining ham boyi, ham shohi bo’lsam, men kimga ham zakot berardim.

Mening davlatimda yolg’iz inim Boysari chindanam boy, lekin u hech kimga zakot bermaydi.

Nahotki, u endi baxilga chiqib ketsa?! – dedi o’ziga o’zi.

Keyin ko’nglidan o’tkazdi: “Baxilga chiqmaslik uchun Boysari ukam menga zakot berishi kerak ekan!”

Shundan keyin Boybo’ri ukasi Boysariga zakot berishi to’g’risidagi xabarni yetkazadi.

“Alpomish” dostonida zakot va juzya haqidagi fikr quyidagicha ifoda qilingan:

*“Xudo deyin, yaratganga jilayin,
O’z akamga qanday zakot berayin,
O’z akamga o’zim zakot berguncha,
Boshqa yurtda juzya berib yurayin”.*

Dostonning mana shu joyida boylarning davlat oldida burchli ekani, ya’ni boylar mol-mulkidan yoki jon sonidan xayr-ehson yoki soliq to’lashlari lozim ekani mohirona tasvirlangan. Bu esa, o’z navbatida, asarda shoh Boybo’ri bilan boy Boysari o’rtasida kelishmovchilikning kelib chiqishiga sabab bo’lgan.

Asar debochasidagi voqealar rivoji, tub burilish nuqtasi iqtisodiy munosabatlar orqali ifoda qilinadi.

Eng asosiysi, “Alpomish” dostoniga kiritilgan Boysun – Qo’ng’irot eli va Qashal eli (*Qalmoq yurti*) misolida har bir muayyan davlatning taraqqiyotiga asos bo’lgan soliqlar haqida badiiy motivlar orqali fikr yuritiladi. Bu esa asarning g’oyaviy va badiiyligini yanada oshirgan.

Soliqlar – iqtisodiy munosabatlarning eng qadimiy shakli bo’lib, uning vujudga kelishi davlatning ehtiyoji bilan bog’liq bo’lgan.

“Alpomish” dostoni yaratilgan davrda, ya’ni o’rta asrlarda markazlashmagan, tarqoq bo’lgan davlatlar juda ko’p bo’lgan, lekin ularda soliq va boshqa to’lovlarning tabaqalashtirilgan turlariga amal qilgan. Masalan, Boysun – Qo’ng’irot elida zakot tarzida, Qashal eli (*Qalmoq yurti*)da juzya tarzida yuritilgan, ya’ni bittasi mol-mulkdan, ikkinchisi esa jon soniga nisbatan olingan. Har bir davlatning xazinasini to’ldirishda soliqlar va boshqa to’lovlar asosiy o’rinni egallagan. Tegishli manbalarda zakot va juzya atamalarining mazmuni quyidagicha izohlanadi:

Zakot (*arabcha tozalash, xayr-ehson*) – mol-mulk va daromaddan beriladigan xayr-ehson bo’lib, islomning besh asosiy talablaridan biri. Shariatga muvofiq, muayyan boylikka, nisobga ega bo’lgan musulmonlar zakot berishadi. Uning miqdori 85 gramm oltin miqdoridagi mablag’. Mazkur mablag’ kishining o’zi va qaramog’idagilarning zaruriy ehtiyojlaridan ortiqcha bo’lishi lozim. Bu mablag’ga kishining jamg’armasi, do’kondagi sotiladigan mollari, sotaman deb olib qo’ygan narsalari, birovga bergan qarzi kiradi. U yilda bir marta berilishi shart bo’lgan xayr-ehson qatoriga kiradi. Beriladigan zakot miqdori mablag’larning 1/40 ulushi (2,5foiz)ga tengdir.

Juzya – jon solig’i, dastlab arablar tomonidan O’rta Osiyo xonliklarida musulmon bo’lmagan fuqarolarning islom dinini qabul qilmaganlaridan olingan soliq turi hisoblanadi.

Davrlar silsilasida zakot va juzya atamalarining mazmuni va mohiyati u qaysi joyda ishlatilishiga qarab o’zgarib turgan.

Dostonida zakotni boy Boysaridan shoh Boybo’riga berilishi kerakligi to’g’risida yoziladi. Boysari agar Boysun – Qo’ng’irot eliga zakot bersa, u mol-mulkidan berishi lozim bo’lgan, Qashal eli (*Qalmoq yurti*)ga esa u jon sonidan juzya to’lagan. Boysari qaramog’ida jon soni uning mollari sonidan bir necha o’n ming barobarga kam bo’lgan, demak, Boysari boshqa yurtda kam miqdorda soliq to’lashga erishgan, asardagi aka-uka o’rtasidagi mojaro xuddi mana shu “foydali ko’rishdan” boshlangan.

O’zbek folklorining shoh asari bo’lgan “Alpomish” dostonida zakot va juzya kabi iqtisodiy tushunchalarning talqini asar abadiyatini belgilab beruvchi asoslardan biridir. Zero bu tushunchalarning o’tmishda ham amal qilgani va bizgacha ularning nomi o’zgargan holda bo’lsa-da, yanada takomillashib yetib kelgani, hamda ularning mazmun-mohiyati saqlanib qolingani biz uchun ahamiyatlidir.

Shuhrat RUSTAMOV,
O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi



Milliy g'urur

Milliy qadriyatlar

JASORATNI SHAKLLANTIRADI

Mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini mustahkamlash hamda harbiy xizmatchilarning ma'naviy-ma'rifiy salohiyatini yuksaltirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Joriy yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida o'tkazilgan Xavfsizlik kengashining yig'ilishida ham bu boradagi muhim vazifalar belgilab berilgan edi. Xususan, yoshlarda milliy g'urur, Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'ularini shakllantirish, ularni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalash ustuvor yo'nalish sifatida qayd etildi.

Mazkur vazifalar ijrosi doirasida Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug tasarrufidagi Termiz, Kakaydi va Xayrobod garnizonlarida joylashgan harbiy qismlarda milliy qadriyatlarni

targ'ib etishga qaratilgan bir qator amaliy ishlar olib borilmoqda. Jumladan, harbiy xizmatchilar uchun "Baxshichilik" va "Ot sporti" to'garaklari tashkil etilgan bo'lib, ular yosh askarlarning ma'naviy va jismoniy kamolotida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xayrobod garnizonida joylashgan harbiy qismda faoliyat yuritayotgan "Baxshichilik" to'garagi esa bugungi kunda milliy san'atga qiziquvchi o'nlab harbiy xizmatchilarni birlashtirib, ularda xalq dostonlari, milliy kuy-qo'shiqlar va ajdodlarimizdan meros bo'lib

kelayotgan baxshichilik an'analariga mehr uyg'otmoqda. To'garakda yoshlar O'zbekiston xalq baxshilari va tajribali ustozlar tomonidan olib borilayotgan mashg'ulotlar davomida do'mbira va chanqovuz chalish sirlarini puxta o'zlashtirmoqda.



Bugun mazkur to'garak a'zolari chanqovuz va do'mbira kuylari orqali Vatanga muhabbat, mardlik va sadoqat g'oyalarini qalbidan his etib, tengdoshlariga ham yetkazib kelmoqda.

Harbiy qismda tashkil etilgan "Ot sporti" to'garagida olib borilayotgan mashg'ulotlar ham harbiy xizmatchilarda chaqqonlik, jasorat, muvozanat va iroda kabi muhim fazilatlarni shakllantirmoqda.

Umuman olganda, "Baxshichilik" va "Ot sporti" to'garaklari orqali harbiy xizmatchilar nafaqat milliy merosimiz bilan yaqindan tanishmoqda, balki ajdodlarimizga xos jasorat, matonat va fidoyilik kabi yuksak fazilatlarni ham o'z qalblariga singdirmoqda.



Zero harbiy kuch faqat qurol va texnika bilan emas, balki ma'naviy yetuklik, milliy g'urur va Vatanga sadoqat bilan ham belgilanadi. Xayrobod garnizonida amalga oshirilayotgan mazkur tashabbuslar ana shu ezgu maqsadlarga xizmat qilib, askarlarni har tomonlama



yetuk Vatan himoyachilari etib tarbiyalashga munosib hissa qo'shmoqda.

**Podpolkovnik
Davronbek ABDURAHIMOV,
Janubiy operativ
qo'mondonligi boshlig'ining
tarbiyaviy va mafkuraviy
ishlar bo'yicha o'rinbosari**

Harbiy sport musobaqasi

SHIJOATLI VA G'AYRATLI YOSHLAR BELLASHUVI



Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug tasarrufidagi Termiz garnizonida joylashgan harbiy qismda "Shijoat va g'ayrat" harbiy sport musobaqalarining viloyat bosqichi bo'lib o'tdi.

Musobaqada Janubiy operativ qo'mondonlik, Yoshlar ishlari agentligi, O'zbekiston mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Surxondaryo viloyati boshqarmasi, Yoshlar ittifoqi vakillari, keng jamoatchilik hamda mahalla yoshlari ishtirok etdi.

Tadbirning ochilish marosimida so'zga chiqqanlar mamlakatimizda yoshlarni sportga keng jalb etish, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilish, jismoniy va ma'naviy salohiyatini oshirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar xususida to'xtalib o'tdi.

Musobaqada 18-22 yoshli o'g'il-qizlar turnikda tortilish va orqa bilan yotgan holatdan tanani ko'tarish, o'quv qo'l granatasini uzoqlikka



uloqtirish, uzoq va yaqin masofalarga yugurish, AK-74 qurolini noto'liq qismlarga ajratish va yig'ish hamda pnevmatik quroldan o'q uzish kabi shartlar bo'yicha o'zaro kuch sinashdi.

Qiziqarli va murosasiz kechgan bahslar davomida yoshlar o'zlarining harbiy tayyorgarligi, jismoniy imkoniyatlari, chaqqonligi va aniqligini namoyon etdi. Musobaqa kuch, tezlik, matonat va harbiy ko'nikmalarni sinovdan o'tkazgan haqiqiy bellashuvga aylandi.



Yakuniy natijalarga ko'ra, Termiz shahrining Eski shahar mahallasi jamoasi uchinchi, Bandixon tumanining Zevar mahallasi jamoasi 2-o'rinni egalladi. Sariosiyo tumanining Nurbuloq mahallasi yoshlari esa barcha shartlar bo'yicha eng yuqori natijani qayd etib, mutlaq g'olib sifatida keyingi bosqich yo'llanmasini qo'lga kiritdi.

Bu kabi musobaqalar yoshlarning jismoniy tayyorgarligini mustahkamlash, harbiy-vatanparvarlik ruhini yuksaltirish hamda ularning kelgusida milliy armiyamiz safida munosib xizmat qilishi uchun mustahkam zamin yaratmoqda.

**III darajali serjant
Akbar AHMEDOV
Termiz garnizoni**

YOSHLAR XAVFSIZLIGI — OLIY MAQSADIMIZ!

“ Biz ko‘pincha urushlarni olisda, portlashlar va qurol-aslahalar ichida tasavvur qilamiz, vaholanki bugun insoniyat hayotiga, ayniqsa navqiron yoshlarimizning kelajagiga qarshi hech qanday o‘q ovozsiz, qon daryolarisiz, ammo undan-da mudhishroq, sokin va ayyorona bir urush ketmoqda.

Bu – xalqimizning tomiriga bolta urayotgan narkotahdid va yo‘llardagi mudhish mas‘uliyatsizlik urushi. Aynan mana shu tahdidlarning oldini olish, aholi salomatligi va millat genofondini giyohvandlikdan himoya qilish hamda yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan tarixiy qonun imzolandi.

Bu shunchaki rasmiy qonuniy hujjat yoki qog‘ozdagi tartib emas, bu – millat sifatidagi borlig‘imizni, farzandlarimizning ertangi kunini asrab qolish uchun butun jamiyatga chalingan so‘nggi ogohlantirish bongi, desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

Bugun an‘anaviy giyohvandlik vositalari davri butunlay ortda qolib, ularning o‘rnini atigi bir marta iste‘mol qilingandayoq inson miyasini butkul izdan chiqaradigan, asab tizimini parchalab, odamni tirik murdaga aylantiradigan sintetik narkotiklar, psixotrop moddalar va “dorixonaga tobelik” balosi egallamoqda.

Eng dahshatlisi, ushbu ajal urug‘larini sochayotgan narkobaronlar endi ko‘chalarda yoki qorong‘i xiyobonlarda yashirinib yurgani yo‘q, ular zamonaviy texnologiyalardan ustalik bilan foydalanib, har bir yoshning qo‘lidagi smartfonga, ijtimoiy tarmoqlarga va yashirin “Darknet” tarmoqlariga kirib ulgurgan.

Ular yoshlarning g‘o‘rligi, moddiy qiyinchiliklari yoki tez boyib ketishga bo‘lgan xomxayollaridan foydalanib, go‘yoki xavfsiz va mo‘may daromad keltiruvchi “zakladka”, ya‘ni mahsulotni yashirin joylarga tashlab kelish ishlarini taklif qilmoqda. Minglab yoshlarimiz bu ishning ortida butun umrlik fojia, qora dog‘ va yoshlikni qamoq panjaralari ortida chirituvchi mudhish jazo turganini juda kech anglab yetmoqda.

Davlatimiz rahbari tomonidan imzolangan yangi qonun bilan Jinoyat kodeksiga “**Aholi salomatligi va genofondiga qarshi jinoyatlar**” nomli

mutlaqo yangi bobning kiritilishi ana shunday o‘lim savdogarlariga qarshi ayovsiz kurash boshlanganidan dalolat beradi. Endilikda noqonuniy narkolaboratoriya tashkil etganlar, internet orqali zahar tarqatganlar va bu jinoiy tarmoqlarga homiylik qilganlar eng og‘ir, shafqatsiz jazo choralari mahkum etiladi va qonun ularga aslo shafqat qilmaydi.

Davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishi sifatida har bir yosh yigit-qizda “giyohvandlikka qarshi immunitet”ni shakllantirish vazifasi belgilandi, bu immunitet esa har qanday shubhali taklifga, soxta do‘stning “bir marta ta‘tib ko‘r, zo‘r kayf qilasan” degan da‘vatiga qarab, dadil va qat‘iy ravishda “YO‘Q!” deya olish kuchidir.

Giyohvandlik shunday kulfatki, u faqat o‘sha moddani iste‘mol qilgan shaxsninggina emas, uni oq yuvib oq taragan, umidlar bilan voyaga yetkazgan ota-onasining belini bukuvchi va butun bir oilani tiriklayin go‘rga tiquvchi dahshatli

ofatdir. Endilikda har bir dori vositasining ishlab chiqarilishidan tortib, sotuvgacha bo‘lgan jarayoni elektron nazorat qilinadi, biroq eng asosiy va mustahkam nazorat har bir yoshning vijdonida, qalbi va huquqiy madaniyatida bo‘lishi shart.

Davlat rahbari o‘rtaga tashlagan ikkinchi o‘ta og‘riqli va yurakni ezadigan masala bu voyaga yetmagan, haydovchilik guvohnomasiga va hayotiy tajribaga ega bo‘lmagan yoshlarga rul boshqaruvini topshirish hamda buning oqibatida kelib chiqayotgan mudhish yo‘l-transport hodisalaridir.

Ayrim ota-onalar farzandlariga mashina kalitini “shunchaki haydab tursin, ko‘chada tengqurlari oldida obro‘ bo‘ladi” deb berayotgan bo‘lsa, ayrim yoshlar rulga o‘tirib, ko‘chalarda aqlsizlarcha “poyga” uyushtirib, o‘zlarini ijtimoiy tarmoqlar qahramonidek his qilmoqda. Ammo har kuni internet tarmoqlarida guvohi bo‘layotganimiz – parchalangan temir-tersaklar, yoshi yigirmaga ham kirmay

tuproqqa berilayotgan navqiron yoshlar, farzand dog‘ida qon yig‘layotgan onalar va bir umrga nogironlar aravachasiga mixlanib qolayotgan ayanchli taqdiralar barchamizni chuqurroq o‘ylashga, hushyor bo‘lishga majbur qilishi kerak emasmi?

Mashina boshqarish bu shunchaki o‘yinchoq yoki maqtanchoqlik vositasi emas, u har qadamda yuzlab begunoh odamlarning, ko‘chaga chiqqan murg‘ak go‘daklarning hayotini xavf ostiga qo‘yishi mumkin bo‘lgan o‘lim qurolidir. Shu bois yangi qonunchilikda yo‘l harakati qoidalariga rioya etilishini ta‘minlash, ayniqsa voyaga yetmaganlarga transport vositasini ishonib topshirganlik uchun javobgarlik choralari keskin kuchaytirilmoqda.

Aziz tengdoshim, sening hayoting, sog‘lig‘ing va kelajaging faqatgina sening shaxsiy mulking emas, u seni dunyoga keltirgan ota-onangning baxti, sendan buyuk ishlar, yutuqlar kutayotgan jonajon Vataningning ertangi kunidir.

Bir lahzalik soxta lazzat, telefondagi shubhali moddiy manfaatlar yoki mashinadagi mas‘uliyatsiz poygalar evaziga butun hayotingni qorong‘i panjaralar ortiga yoki sovuq qabrga almashtirib yuborma.

Davlat qonunlarni kuchaytirdi, nazoratni eng yuqori darajaga ko‘tardi, biroq bu mudhish balolarga qarshi eng asosiy qalqon – sening hushyorliging va yuksak ma‘naviyating, o‘z kelajagingni asra, chunki millatning butun genofondi va ertangi shukhi aynan sening to‘miringda oqayotgan sof qonda mujassam!

Jamshid NAZAROV,
Termiz davlat
universiteti tyutori



Ma‘naviyat

SHUKRONALIK — ULUG‘ TUYG‘U

Termiz, Kakaydi va Xayrabod garnizonlarida joylashgan harbiy qismlarda barcha toifadagi harbiy xizmatchilar ishtirokida shukronalik yig‘ilishlari o‘tkazildi.

Tadbirlar davomida O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tizimida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, harbiy xizmatchilar va ularning oila a‘zolari uchun yaratilayotgan munosib shart-sharoitlar, ijtimoiy himoya hamda harbiy xizmat nufuzini oshirish borasida olib borilayotgan ishlar haqida atroflicha ma‘lumot berildi.

Shuningdek, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni rahbarligida harbiy sohada amalga



oshirilayotgan izchil islohotlar, zamonaviy harbiy infratuzilmalarni barpo etish, harbiy xizmatchilarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ularning xizmat hamda turmush sharoitlarini yanada yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar alohida ta‘kidlandi.

Yig‘ilishda so‘zga chiqqan harbiy xizmatchilar mamlakatimizda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalik, yurt posbonlariga ko‘rsatilayotgan yuksak e‘tibor va g‘amxo‘rlik uchun minnatdorlik bildirib, Vatan himoyasi yo‘lida o‘z



xizmat vazifalarini sadoqat va mas‘uliyat bilan bajarishga tayyor ekanliklarini e‘tirof etdi.

Bunday shukronalik yig‘ilishlari harbiy jamoalarda birdamlik va vatanparvarlik tuyg‘ularini yanada mustahkamlab, har bir harbiy xizmatchining mamlakat xavfsizligini ta‘minlash yo‘lidagi mas‘uliyatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Dilafruz NORBOYEVA,
Termiz davlat
universiteti talabasi

Parvoz

MUHMIM VA TARIXIY VOQEA

“Yangi O‘zbekiston” bog‘ida Favqulodda vaziyatlar vazirligi akademiyasi kursantlarining tantanali bitiruv tadbiri o‘tkazildi.



Tadbirda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatorlari, Qonunchilik palatasi deputatlari, Toshkent shahri hokimligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Toshkent shahri va viloyati Favqulodda vaziyatlar Bosh Boshqarmalari, Fuqaro muhofazasi, Ilmiy innovatsiyalar va sinov tadqiqot institutlari hamda akademiya rahbariyati, faxriylar, tegishli vazirlik va oliy harbiy ta‘lim muassasalari mas‘ullari, yozuvchi va shoirlar, san‘atkorlar, akademiya professor-o‘qituvchilari, bitiruvchilarning ota-onalari va keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

Tadbirni Favqulodda vaziyatlar vaziri general-mayor Azizbek Ikramov ochib, Yangi O‘zbekistonda Prezidentimiz tashabbusi bilan barcha sohalarda ulkan islohotlar amalga oshirilayotgani, xususan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 3-apreldagi “Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida malakali kadrlarni tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimiga yetuk malakali kadrlar tayyorlashning mutlaqo

yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilayotganini e‘tirof etdi.

Shuningdek, islohotlar zahirida akademiya yagona ta‘lim kampusi tamoyili asosida rivojlantirilmoqda. Uning tarkibida Qutqaruvchilar tayyorlash texnikumi, Xorijiy kadrlarni tayyorlash fakulteti, Fuqaro muhofazasi instituti, Malaka oshirish markazi tashkil etilayotgani soha uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashning uzluksiz tizimi shakllanayotganidan dalolat. Akademiyada bakalavriyat va magistraturaning ikki bosqichli zamonaviy ta‘lim tizimi joriy etilayotgani, ta‘lim jarayoniga dual ta‘lim shakli, raqamli texnologiyalar, virtual poligonlar va simulyatsiya markazlari keng tatbiq etilishi, kursant va tinglovchilarning nazariy bilimlari bilan bir qatorda amaliy ko‘nikmalarini ham mustahkamlash imkonini berayotgani, ayniqsa ilmfan, innovatsiyalar va sun‘iy intellekt texnologiyalarini ta‘lim jarayoniga keng joriy etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, xorijiy tajribani o‘rganish va ilg‘or mutaxassislarni jalb qilish bo‘yicha belgilangan vazifalar kelajakda akademiyaning mintaqadagi yetakchi ta‘lim va ilmiy



markazlardan biriga aylantirishi, shubhasiz ekanini alohida ta‘kidladi.

Tadbirning yana bir e‘tiborli tomoni shundaki, akademiya bitiruvchilarining 9 nafari “imtiyozli” diplomga ega bo‘ldi. Bundan tashqari akademiya huzuridagi Fuqaro muhofazasi institutining 20 nafar tinglovchisiga ham magistrlik diplomi tantanali topshirildi.

So‘zga chiqqanlar bitiruvchilarni hayotidagi muhim va unutilmas kun bilan samimiy muborakbod etdi.

ta‘kidlandi. Shu bilan birga, bitiruvchilar egallagan bilim va ko‘nikmalarini amaliy faoliyatda samarali qo‘llab, xizmat burchiga sadoqat, fidoyilik, halollik va matonat namunasi bo‘lishi lozimligi qayd etildi.

Muxtasar qilib aytganda, ushbu tantanali tadbirning ilk bor “Yangi O‘zbekiston” bog‘ida o‘tkazilishi nafaqat akademiya hayotida, balki vazirlik tizimida ham muhim va tarixiy voqea sifatida alohida ahamiyat kasb etdi.



Qayd etilganidek, bugungi tantana nafaqat ko‘p yillik mashaqqatli ta‘limning munosib yakuni, balki Vatan va xalq oldidagi sharaflı xizmat yo‘lining boshlanishidir.

Shuningdek, Yangi O‘zbekistonda favqulodda vaziyatlarning oldini olish, aholi hayoti va salomatligini muhofaza qilish, yurt tinchligi hamda xavfsizligini ta‘minlash yo‘lida xizmat qiladigan yosh ofitserlar zimmasiga katta mas‘uliyat yuklashi alohida

Zero “Yangi O‘zbekiston” bog‘i va undagi “Mustaqillik monumenti” mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, xalqimiz orzu-intilishlari va Vatan taraqqiyotining yorqin ifodasi hisoblanadi.

Mayor Farhodjon XOJAYEV,
Favqulodda vaziyatlar
vazirligi akademiyasi axborot
va jamoatchilik bilan aloqalar
bo‘limi boshlig‘i



Bitiruv



Yoshlarga bildirilayotgan yuksak ishonch va ularning kelajakda Vatan himoyasi yo'lida xizmat qilishga bo'lgan intilishlarini namoyon etgan tadbirda Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'mondonligi, viloyat hokimligi, litsey rahbariyati, faxriylar, jamoatchilik faollari hamda bitiruvchilarning yaqinlari va ota-onalari ishtirok etdi.

Tantanali marosimda so'zga chiqqanlar mamlakatimizda yosh avlodni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularni zamonaviy bilim va kasb-hunarlariga o'qitish, jismonan sog'lom va ma'nan yetuk insonlar etib tarbiyalash borasida amalga oshirilayotgan islohotlarga alohida to'xtaldi. Shuningdek, harbiy akademik litseylarda tahsil olayotgan

MANGUBERDI VORISLARIGA OQ YO'L

Xorazm viloyatidagi Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy akademik litseyning navbatdagi bitiruvchilari tantanali tarzda kuzatildi.

yoshlarning Vatanga muhabbat, sadoqat va yuksak mas'uliyat tuyg'usi bilan kamol topayotgani ta'kidlandi.

Urganch shahridagi Jaloliddin Manguberdi haykali oldida bo'lib o'tgan tadbir davomida o'qishda, jamoat ishlarida va turli tanlov hamda olimpiadalarda yuqori natijalarga erishgan bir guruh bitiruvchilar

munosib taqdirlandi. Fanlar bo'yicha milliy sertifikatlarni qo'lga kiritgan o'quvchilarga diplomlar, faxriy yorliq va esdalik sovg'alar topshirildi.

Tadbir ishtirokchilari bitiruvchilarning bugungi yutuqlari ustozlarning fidokorona mehnati, ota-onalarning ishonchi va yoshlarning izlanuvchanligi samarasi ekanini

alohida qayd etdi. Shu bilan birga, litsey bitiruvchilari kelgusida oliy harbiy ta'lim muassasalarida tahsil olib, mamlakatimiz Qurolli Kuchlari safida munosib xizmat qilishlariga ishonch bildirildi.

Marosim harbiy orkestr ijrosida vatanparvarlik ruhida kuy-qo'shiqlar, o'quvchilarning ko'rgazmali chiqishlari hamda bitiruvchilarning tantanali saf yurishi bilan davom etdi. Bu esa yig'ilganlarda katta taassurot qoldirdi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur tadbir yosh avlodga yaratilayotgan keng imkoniyatlar, ularga bo'lgan yuksak e'tibor va Vatan ravnaqi yo'lida xizmat qilishdek sharaflı burchning yana bir yorqin ifodasi bo'ldi.

**Katta leytenant
Ahadjon JABBOROV,
Shimoli-g'arbiy harbiy
okrug qo'mondonligi
matbuot xizmati boshlig'i**



Muallif suratga olgan

Unutilmas kun

Farg'ona "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseyida navbatdagi bitiruv marosimi ko'tarinki ruhda o'tkazildi. Tantanali marosimda Sharqiy harbiy okrug qo'mondonligi, Qurolli Kuchlar faxriylari, ota-onalar, pedagoglar, hamkor tashkilotlar vakillari hamda keng jamoatchilik ishtirok etdi.



Bugungi kunda "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseylari yoshlarni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish, ularda liderlik fazilatlarini va harbiy kasbga bo'lgan qiziqishni shakllantirishda muhim ta'lim maskanlaridan biriga aylangan. Litseyda yaratilgan zamonaviy sharoitlar o'quvchilarning intellektual salohiyati, jismoniy tayyorgarligi va harbiy-amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Marosim davomida so'zga chiqqan mutasaddilar bu haqda alohida e'tirof etib, bitiruvchilarning ta'lim jarayonidagi yutuqlari, ularning



YOSHLAR UCHUN YANGI UFQLAR OCHILMOQDA



oldiga qo'ygan ulkan maqsadlari hamda yurt ravnaqi yo'lidagi mas'uliyati haqida ham to'xtalib o'tdi. Ta'kidlanganidek, bugungi bitiruvchilar nafaqat bilimli yoshlar, balki Vatan taqdiri va xalq manfaatlarini chuqur his etadigan fidoyi avlod vakillaridir.

Tadbir doirasida bitiruvchilar bilan o'tkazilgan suhbat ham alohida e'tiborga loyiq bo'ldi. Yoshlar litseyda olgan bilim va tarbiya ularning hayotiy qarashlarini tubdan o'zgartirgani, harbiy kasbga bo'lgan qiziqishlarini yanada mustahkamlaganini ta'kidladi. Ularning aksariyati kelgusida oliy harbiy ta'lim muassasalarida tahsil olib, Qurolli Kuchlar safida xizmat qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yganlarini bildirdi.

Harbiy orkestrning jo'shqin kuy-qo'shiqlari, faxriy qorovulning ko'rgazmali chiqishlari hamda taniqli san'atkorlar ishtirokidagi konsert dasturi bayramga yanada ko'tarinki ruh bag'ishladi.

Ha, bitiruvchi bu yoshlar oldida yangi ufqlar ochilmoqda. Shu bilan birga ular zimmasiga katta mas'uliyat yuklanmoqda. Zero bugun "Temurbeklar maktabi"ni tamomlayotgan o'g'lonlar ertaga mamlakat mudofaa salohiyatini mustahkamlovchi, xalq ishonchini oqlovchi va Vatan ravnaqiga xizmat qiluvchi munosib avlod vakillari bo'lib yetishadi.

**Sharqiy harbiy okrug
matbuot xizmati**

SENSEN SEVARIM...

Mavlono Lutfiy – o'zbek xalqining atoqli namoyandasi, jahon hamda o'zbek mumtoz adabiyoti xazinasiga o'zining bebaho ulushini qo'shgan, o'zbek va fors-tojik tillaridagi asarlari bilan Sharq adabiy muhitida yorqin iz qoldirgan shoir. So'z mulkingning sultoni Alisher Navoiyning ta'biricha, zamonasining mashhur "Malik al-kalom"i, ya'ni "So'z podshosi" nomi bilan shuhrat qozongan buyuk iste'dod sohibi.

Mavlono Lutfiy uzoq umr ko'rib, barakali ijod qilgani bois, nazm ahli ichra "ko'prik shoir", ya'ni ikki asrni ulab turgan, 99 yoshni to'ldirib vafot etgan shoir sifatida alohida e'tirof etiladi.

Ul zotning nazmiyotida hayot zavqi, olam go'zalliklari, ishq na'shidasi, visol va hijron tarannumi, shu bilan bir qatorda oshiqning tushkun kayfiyatlariga ham duch kelamiz. Bu kabi holatlarda har bir kitobxon, she'rxon shoirning ruhiyati, ichki olami bilan yuzma-yuz keladi.

Lutfiy nazmining go'zalligi asosini g'azallarning soddaligi, ohanglarning xalqonaligi, xalq qo'shiqlari va aytimlariga yaqinligi, xalq og'zaki ijodidan unumli foydalanishi, shuningdek, g'azallarning aruziy mukammalligi, ravonligi va hajman ixchamligi tashkil etadi.

She'riyatda shoir kayfiyatiga hamohang tarzda jonli so'zlashuv uslubidan foydalanishi, xalqona maqol-matal yoki istehzoli qochirimlar, qarg'ish, kinoyali jummalarni qo'llash hamisha o'quvchini o'ziga jalb etuvchi vosita bo'lib kelgan. Mavlono Lutfiy ham bu borada nihoyatda mohir bo'lib, o'z g'azallarining go'zalligini, badiiyatini yanada oshirgan.

Lutfiy o'zining "uchradi" radifli g'azalida xalqona qarg'ish jumladan kinoyali tarzda foydalanib, juda go'zal maqta'ni, ya'ni so'nggi baytni yaratadi:

**Lutfiy kim qarg'adi: "Yo rab,
baloga uchra!" – deb,
Kim seningdek tosh bag'irliq
dilarboga uchradi.**

Yana bir g'azalida esa Lutfiy hazratlari xalqona jaydari bir iborani juda o'rinli va chiroyli qo'llaydi:

**Ul badanning davlatidin tug'di
ko'nglakning kuni,
Husni tole ko'rkim, uldur xoli
ichki mahrami.**

Bu ibora bir baytning o'zida istiora, tashxis, tanosub, mubolag'a kabi bir necha she'riy san'atlarni yuzaga chiqargan. Shoir aytadiki, yor badanining davlatidan ko'ylakning omadi chopganki, badandagi xol ko'ylakka tegib, uning mahramiga aylangan. Bu qadar go'zal va noyob badiiylilik asosida, albatta, xalq og'zaki ijodi, jonli so'zlashuv tilining boyligi va betakrorligi turadi.



Shoir esa bu unsurlardan ustamonlik bilan foydalanadi.

Xalqimiz tilida yana bir ibora borki, buni nihoyatda go'zal, ammo va'dasida turmaydigan go'zallarga nisbatan qo'llaydilar: "Go'zallarda vafo bo'lmas". Mavlono Lutfiy esa bu jumladan juda ta'sirchan misra yaratadi:

**Bir zarra vafo topmadi
Lutfiy sevarindin,
Ko'rkluk kishining bo'lmas emish
mehr-u vafosi.**

Yoki:

**La'lig'a boqsam, bilurkim, ko'nglim
ul yon tortadur,
Noz ila o'lturg'ali aytur:
"Seni qon tortadur".**

Bu baytda esa "tortadur" so'zining ikki ma'noda qo'llanishi orqali tajnis san'ati yuzaga kelgan bo'lib, xalqona "qon tortmoq" iborasiga badiiy ma'no yuklangan.

Va yana:

**Dilbar sog'inmag'on jihati bu
firoq emish,
"Ko'zdin yiroq bo'lsa, ko'nguldin
yiroq" ermish.**

Shoir xalq maqollarini kesatiq va kinoya bilan qo'llab, irsoli masal san'atining go'zal namunalarini yaratadi. Yana shu kabi bir



baytni keltirishni istadimki, bu o'zga biror shoirda uchramaydigan badiiy originallik desam, balki xato bo'lmas:

**Bir kun jaf o'z tugansa, netarsen, kerak bo'lur,
Ko'p sarf qilma Lutfiyga javr-u itobni.**

Qarangki, jabr-u sitamlardan zada bo'lgan oshiq ma'shuqaga: shunchalik ko'p javr-u sitamlar qilyapsanki, bir kun tugab qolsa, nima qilasan, bu jafolaringni ko'p sarflayverma Lutfiyga, deya o'quvchi yuziga tabassum ulashuvchi kesatiq, kinoyali ifodani keltiradi.

Yoki shoir yana bir baytda shunday kinoya qiladi:

**Kishikim o'z jonig'a qasd etar, seni sevsun,
Dag'i eshikingga kelsun, balo kerak bo'lsa.**

Bu misollar Mavlono Lutfiy ijod dengizidan zarra tomchilardir. Bu dengizda qancha g'avvoslik qilsak, shunchalik bebaho dur-u marjonlarni kashf etaveramiz. Turkiy olamning ulug' shoirlari Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiyga she'riyat saboqlarini bergan Lutfiy ijodida ilohiy ishq shavqi ham bo'y ko'rsatadiki, bu uning tabiatida darveshlik, so'fiylik maqomoti mavjudligini ham ko'rsatadi.

Men so'zimni Mavlono Lutfiyning xalqimiz qalbiga singib ketgan, qo'shiqqa aylanib, tildan tilga, dildan dilga o'tib kelayotgan mashhur g'azali bilan muxtasar qilaman va endigi izlanishlarni Lutfiy ijodiga qiziqqan ixlosmandlar davom ettirishiga ishonaman. Zero Lutfiy shakaristoniga sayr etish xumori endi ko'ngillarni tinch qo'ymas.

Sensen sevarim, xoh inon, xoh inonma,
Qondur jigarim, xoh inon, xoh inonma.

Hijron kechasi charxi falakka yetar, ey moh,
Ohi saharim, xoh inon, xoh inonma.

Haqqoki qilich kelsa boshimga, eshikingdin
Yo'qtur guzarim, xoh inon,
xoh inonma.

Usruk ko'zing ashkolina har gah
nazar etsam,
Qolmas xabarim, xoh inon,
xoh inonma.

Ya'qub bikin ko'p yig'idin
qolmadi sensiz
Nuri basarim, xoh inon,
xoh inonma.

Oy yuzung'a ko'z solg'ali
o'zga kishi birla,
Yo'qtir nazarim, xoh inon,
xoh inonma.

**Shoira SHAMS,
O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a'zosi, shoira**



“Eng yaxshi kitobxon” tanlovi nomzodlariga

BARHAYOT SHOIR

“Osmon cho‘kib qoldi bu oqshom”. Qaysi hasratdan cho‘kib qoldi ekan-a, osmon? O‘zim bilan yolg‘iz qolgan kezlarim takrorlab yuradigan misralarimning eng sevimlisi shu. Shoir bu misrani yozganda qaysi hasratni nazarda tutgan ekan?

Osmonning belini bukan dardning oti nima? Shoirning o‘zi bo‘lganda, balki, “muhabbat” deb javob bergan bo‘lardi. Balki, “olis bolalik sohillarida qolib ketgan muhabbat” degan bo‘lardi. “Sevish kerak, yashash shart emas” degan bo‘lardi. Men esa bu misrani o‘z holida va hamma har ko‘rinishida ko‘rishini istayman. Chunki har zamonning har kimning dardiga tushaveradi.

“Osmon cho‘kib qoldi bu oqshom”.

Men bugun faqat shu misra atrofida o‘ralashib o‘qirmanning yuragini ezmoqchi emasman. Shunday buyuk yurak sohibi bo‘lgan haqiqiy shoir haqida gapirmoqchiman. Bolalik yillarim, o‘smirlik chog‘larimning chinakam qahramoni, aslini olganda bugunimning ham qahramoni O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf haqida.

Uzum paykallarida qamish chayla tepasiga chiqqancha yarim tungacha hayqirib she‘rlarini o‘qiganim, qishloqning odamlaridan “Butun mahallani uxlatmading-ku baqiraverib” degan ta‘nalari ostida qolganim, kitob muqovasini har kech yetti joyini yelimlab, asrab-avaylab, qo‘ldan qo‘ymay ko‘tarib yurganlarim haqida so‘zlammoqchiman.

Aslida Muhammad Yusufni tanimagan odam bo‘lmasa kerak.

Shoir bo‘lsang, shunaqa bo‘lsang-da. Har yurakning tub-tubigacha singib borgan. Daladagi dehqon ham adirdagi cho‘pon ham qamoqxona panjarasidan ozodligini kutayotgan mahbus ham hech bo‘lmaganda biror misrasini beixtiyor “Biz baxtli bo‘lamiz, Xudo xohlasa” deya takrorlab qo‘yadi.

Men she‘rning qo‘shiq bo‘lib, undan keyin “shoiri kim edi?” deyilganini yomon ko‘raman. She‘rning o‘zining yo‘li, ohangi bo‘ladi. Ko‘p hollarda kuyga solaman deb ham she‘rning asl mohiyatini yo‘qotib qo‘yamiz. Matn holicha mashhur bo‘lgan she‘rlarga keladigan bo‘lsak ham Muhammad Yusuf ijodida bundaylari talaygina. Birgina “Biz baxtli bo‘lamiz” she‘rini olaylik. Shu she‘rni ko‘chadagi istalgan odamni to‘xtatib so‘rang, hech yo‘q to‘rt qatorini aytib beradi. Yozganlari samimiy, xalqona, xalqning yuragidan chiqqan so‘zlar yuraklarga nishonsiz yetib boradi. Qachonki she‘r o‘qirmanning ko‘nglidan o‘tgan, boshiga tushgan savdolarga yaqin bo‘lsagina muxlis o‘ziniki qilib oladi shoirmi. Shuning uchun ham Muhammad Yusuf chinakam xalqning bolasi edi. Xalqning dardini, chin o‘zbek baxtiyu armonini kuyladi.

Birgina “Vatanim” she‘rini tahlilga tortadigan bo‘lsak, o‘tmishning qonli kechalaridan tortib bugunning yorug‘ kunlariga qadar kuylangan.

**Men dunyoni nima qildim,
O‘zing yorug‘ jahonim.
O‘zim hoqon,
O‘zim sulton,
Sen taxti Sulaymonim.
Yolg‘izim,
Yagonam deymi,
Toppingan koshonam deymi,
O‘zing mening ulug‘lardan
Ulug‘imsan, Vatanim...**

Muhammad Yusuf she‘r yozmagan, balki, dardning ichida qaynagan. Baxtingizga qo‘shilib baxtiyor bo‘lmagandir, ammo dardingizga she‘rik bo‘lgani tayin. O‘zbekning chinakam shoirlaridan Shavkat Rahmon aytganidek,

**“G‘am so‘zin elimdan
avvalroq aytdim,
Baxt so‘zin aytaman
eldan keyinroq”.**

Muhammad Yusuf umri davomida shu misralar ijobatini yashab o‘tgandek tuyulaveradi menga doim.


**Shodon kunim gul otgan sen,
Chechak otgan izimga,
Nolon kunim yupatgan sen,
Yuzing bosib yuzimga.
Singlim deymi, onam deymi,
Hamdard-u hamxonam deymi,
Oftobdan ham o‘zing mehri
Ilig‘imsan, Vatanim.**

Vatanni onaga qiyoslash bor. Xalqimiz orasida “ona Vatan”, “ona tuproq” va shunga o‘xshash tashbehtar. Ammo shoirimiz Vatanning qiyosini topolmay she‘r yozmoqda. Singlim deymi, onam deymi, hamdardim, do‘stim deymi, deydi shoir. Men nima deb atashimdan qat‘iy nazar Vatan hammasidan muqaddasidir, deydi. Hatto butun yer yuziga nur berib turgan quyoshdan mehri ilig‘im, issig‘im deydi. Shuni ishonch bilan aytish mumkinki, Vatanini chin yurakdan sevmagan insondan bunday yurakso‘zlar to‘kilmaydi. Yozilsa ham yuraklarga yetib bormaydi.

**Sen shoxlari osmonlarga
Tegib turgan chinorim,
Ota desam, o‘g‘lim deb,
Bosh egib turgan chinorim,
Qo‘ynimdagi iftixorim,
Bo‘ynimdagi tumorim,
O‘zing mening ulug‘lardan
Ulug‘imsan, Vatanim!**

Osmonlarga shoxlari tegib turgan daraxtni ko‘z oldingizga keltirib ko‘ring, uning soyasida soyalayotgan dunyoni ham. Bizning tariximiz, yurtimiz-da shunday ulkan chinordir. Uning soyasida panalab yurgan qanchadan qancha davlatlar bugun boshim osmonga yetdi deb yuribdi. Bunday Vatan bilan har qancha faxrlansak, arziydi, hokini ko‘zga sursak, arziydi. Vatandan ulug‘roq yana ne bor? Buni juda yaxshi anglagan shoirimiz bejiz “O‘zing mening ulug‘lardan ulug‘imsan, Vatanim” demaydi.

**Muhammadali G‘AFFOROV,
“Vatanparvar”**



Harbiy ta'lim

PROFESSIONAL KADRLARNI TAYYORLASH YO'LIDA

Bugungi murakkab va tez o'zgarayotgan dunyoda har bir davlatning xavfsizligi, avvalo uning professional armiyasi va zamonaviy fikrlaydigan harbiy kadrlariga bog'liq. Yurt tinchligini saqlash, xalq osoyishtaligini ta'minlash va milliy manfaatlarini himoya qilishdek ulkan vazifalar esa puxta tayyorgarlikdan o'tgan harbiy mutaxassislarni talab etadi.

Ana shunday mas'uliyatli vazifalarni bajarishga qodir kadrlarni tayyorlashda Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining Sharqiy harbiy okrug o'quv fakulteti muhim o'rin egallamoqda.

Okrug fakultetida o'quv jarayonlari tasdiqlangan reja asosida izchil va tizimli ravishda tashkil etilmoqda. Mashg'ulotlarda tinglovchilarga zamonaviy harbiy boshqaruv asoslari, qurol-aslahalardan samarali foydalanish usullari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini harbiy faoliyatga joriy etish, psixologik tayyorgarlik hamda rahbarlik ko'nikmalari bo'yicha chuqur nazariy bilimlar berilmoqda.



Fakultetda tayyorlanayotgan mutaxassislar qamrovi nihoyatda keng. Bu yerda vzvod va guruh komandirlari, serjantlar, artilleriya qo'shinlarining quyi bo'g'in ofitserlari, razvedka va maxsus operatsiyalar kuchlari mutaxassislari, muhandislik qo'shinlari vakillari, radiatsion,

kimyoviy va biologik muhofaza yo'nalishidagi harbiy xizmatchilar malaka oshirmoqda. Bundan tashqari, uchuvchisiz uchish apparatlari operatorlari va axborot texnologiyalari sohasidagi mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha ham zamonaviy o'quv dasturlari joriy etilgan.

Fakultetda o'tkazilgan navbatdagi bitiruv marosimida ham bular alohida e'tirof etildi. Marosimda Sharqiy harbiy okrug qo'mondonligi

vakillari, professor-o'qituvchilar, bitiruvchilar va harbiy xizmatchilar ishtirok etdi. Tadbir davomida bir guruh tinglovchilar faxriy yorliqlar bilan taqdirlandi, xizmat faoliyatida yuqori natijalarga erishgan harbiy xizmatchilarga esa navbatdagi harbiy unvonlar topshirildi.

Ofitserlar va malakasini oshirgan harbiy mutaxassislar endilikda yurt tinchligi, xalq osoyishtaligi va davlat xavfsizligini ta'minlashdek sharaflı vazifalarni bajarishga tayyor.

Zero kuchli armiya zamonaviy qurol bilan emas, avvalo bilimli, vatanparvar va fidoyi insonlar bilan qudratli bo'ladi. Sharqiy harbiy okrug o'quv fakultetida yetishib chiqayotgan ana shunday kadrlar esa O'zbekistonning ertangi xavfsizligi va mustahkam mudofaasining ishonchli kafolatidir.

**Sharqiy harbiy okrug
matbuot xizmati**

Armiya va yoshlar



Mamlakatimizda yoshlarning har tomonlama kamol topishi, ularning bilim va salohiyatini ro'yobga chiqarish hamda vatanparvarlik ruhida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu borada, ayniqsa, ta'lim muassasalari va harbiy tuzilmalar o'rtasidagi hamkorlik muhim o'rin tutayotgani e'tiborga molikdir.

Sharqiy harbiy okrug Farg'ona garnizonidagi harbiy qism hamda Farg'ona davlat texnika universiteti o'rtasida imzolangan "Hamkorlik memorandum" ham bu yo'nalishdagi ana shunday muhim tashabbuslardan biri hisoblanadi. Mazkur hujjat yoshlarning intellektual salohiyatidan samarali foydalanish, innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlash hamda mudofaa sohasini rivojlantirishda ilm-fan yutuqlarini keng joriy etishga qaratilgani bilan e'tiborlidir.

KELAJAKKA XIZMAT QILUVCHI MUHIM TASHABBUS

Memorandumni imzolash marosimi keng qamrovli harbiy-vatanparvarlik festivali bilan davom etdi. Festival doirasida zamonaviy qurol-aslahalar va harbiy texnikalar ko'rgazmasi tashkil etilib, talaba-yoshlar harbiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar hamda zamonaviy armiyaning imkoniyatlari bilan yaqindan tanishdi. Bu esa yoshlarning harbiy xizmatga, Vatan himoyasi kabi sharaflı burchga bo'lgan qiziqishini yanada oshirdi.

Tadbirning yana bir muhim qismi "Rahbar va yoshlar" uchrashuvi bo'ldi. Ochiq muloqot tarzida tashkil etilgan uchrashuv davomida yoshlar o'zlarini qiziqitirgan savollarga atroflicha javob

oldi, ularning taklif va tashabbuslari tinglandi. Muhimi, bu muloqot yoshlarning fikrini eshitish, ularning muammolariga yechim topish hamda tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashda muhim o'rin tutdi.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, bugungi kunda har qanday davlatning taraqqiyoti ilm-fan va innovatsiyalar bilan chambarchas bog'liq. Shu bois memorandum doirasida amalga oshiriladigan qo'shma ilmiy tadqiqotlar, amaliy loyihalar va innovatsion ishlanmalar yoshlarning bilim va tajribasini yanada boyitishga xizmat qiladi. Ayniqsa, harbiy-texnikaviy yo'nalishdagi yangi loyihalar mamlakatimiz mudofaa

salohiyatini mustahkamlashga munosib hissa qo'shishi kutilmoqda.

Eng muhimi, bunday hamkorlik yosh avlod qalbida Vatanga sadoqat, yurt taqdiriga daxldorlik hissini kuchaytiradi. Chunki bugungi yoshlar ertangi kunning harbiylari, olimlari, muhandislari va rahbarlari hisoblanadi. Ularning bilimli, tashabbuskor va vatanparvar bo'lib voyaga yetishi esa Yangi O'zbekistonning barqaror taraqqiyotiga xizmat qiladi.

**Gulihumo MAJIDOVA,
Sharqiy harbiy okrug
matbuot xizmati
bosh mutaxassisi**



Tarix va taqdir



Yosh Qizbibi ilmga chanqoq edi. U 1931-yildan 1941-yilgacha G'ishti qishlog'ida maktabda tahsil olib, hayotning ilk saboqlarini o'rgandi. Ammo bu yillar oson kechmadi – urush nafasi butun yurtida sezilib turardi. Otasi erta vafot etdi. Hayot esa uni erta ulg'ayishga majbur qildi.

1941-yil. Urush boshlandi. Yurt sinovga yuz tutdi. Qizbibi tengi o'g'il bolalar urushga, qizlar esa frontorti ishlariga jalb etildi. Shu yili endigina maktabni tugatgan Qizbibi ham G'ijduvon tumanidagi Ulfatbibi qishlog'ida fuqarolar yig'ini kotibasi bo'lib ish boshladi. Ko'p o'tmay, uning tashabbuskorligi va fidoyiligi e'tirof etildi. U Komsomol komitetiga ishga chaqirildi va tashkiliy bo'lim mudirasi etib tayinlandi. Hech qancha vaqt o'tmay esa birinchi kotib darajasiga erishdi.

SINOVLARDA TOBLANGAN IRODA

1926-yil 10-may. Buxoro viloyatining qadimiy maskanlaridan biri – G'ijduvon tumanining G'ishti qishlog'ida oddiy ishchilar oilasida bir qiz dunyoga keldi. Unga Qizbibi deb ism qo'ydi. Otasi – Husen Bobomurodov, onasi – Malika Bobomurodova farzandiga boylik qoldirmadi. Balki unga halollik, mehnatsevarlik va vatanparvarlik kabi boylikdan ham qimmatli fazilatni meros qilib qoldirdi.

Ha, yosh bo'lishiga qaramay, u yetakchiga aylandi va ayni paytda u bilim olishni ham davom ettirib, oliy partiya maktabida tahsil oldi.

1944-yil uning hayotini butunlay o'zgartirdi. Qizbibi "Oq oltin" kolxoziga rahbar etib tayinlandi. Bir tasavvur qilib ko'ring, yosh bir ayolning o'z zimmasiga butun bir xo'jalikning ulkan mas'uliyatini olishi... Ammo u qo'rqmadi! Yuragida ulkan jasorat bilan katta jamoaga bosh bo'ldi.

1944-yildan 1976-yilgacha u shunday mas'uliyatli lavozimda faoliyat yuritdi. 32 yil davomida u kolxozni boshqarib, uni yuksak natijalarga olib chiqdi. U kolxozni yuzaga chiqarish uchun g'ayrat bilan mehnat qildi, odamlarni birlashtirdi, ularda ishonch uyg'otdi. Uning nomi fidoyilik, matonat va rahbarlik timsoliga aylandi.

Bu fidoyilik esa e'tiborsiz qolmadi. Bir kuni kolxozga yuksak martabali mehmon – Sharof Rashidov tashrif buyurdi. U Qizbibi aya boshchilik qilayotgan xo'jalik faoliyati bilan tanishdi. Dalalardagi tartib, mehnatkashlarning birdamligi,

hosildorlikning yuqoriligi – bularning barchasi unda chuqur taassurot qoldirdi. Shu kundan boshlab Sharof Rashidov Qizbibi ayani boshqa kolxoz rahbarlariga namuna qilib ko'rsata boshladi. Bu oddiy e'tirof emas edi. Bu katta ishonch va mehnatga berilgan yuksak baho edi. Sharof Rashidov kolxozga qilgan navbatdagi tashrifining birida Hindiston Bosh vaziri Javoharlal Neruni olib keladi. Bu oddiy tashrif emas edi. Bu – xalqaro darajadagi e'tibor edi! Qizbibi aya boshchiligidagi xo'jalik faoliyati, uning tashkilotchiligi va fidoyiligi mehmonlarda ham katta taassurot qoldiradi. Aynan shu tashrif davomida Qizbibi ayaning sidqidildan qilgan xizmatlari yuksak baholanib, taqdirlandi.

Qizbibi Husenova o'tgan yillar va fidokorona xizmatlari uchun bir qancha orden va medallar bilan taqdirlandi. 1976-yil Qizbibi Husenova G'ijduvon tumani ijroiya qo'mitasi raisining o'rinbosari sifatida faoliyat boshlaydi. U yillar davomida adolatli, talabchan va xalqparvar sifatida xalqning mehrini e'tiborini qozondi. Muhimi, u qayerda ishlamasin o'zgarish qila oldi, unga bildirilgan ishonchni oqladi.

Qizbibi Husenova faqat rahbar emas edi, u oila bekasi ham edi. Turmush o'rtog'i Ato Tilavov yillar davomida uning hayot yo'lida yonida sodiq hamroh bo'ldi, uni qo'llab-quvvatladi. Ular birgalikda hayot sinovlariga bardosh berdi, birga quvondi, birga mehnat qildi. Ularning oilasi mehr va tarbiya maskani edi. Er-xotin 3 nafar qiz va 2 nafar o'g'ilni voyaga yetkazdi. Qizbibi zimmasidagi

mas'uliyatlariga qaramay, farzandlarini mehr bilan tarbiyaladi. Kunduzi xalq xizmatida, kechasi esa oila bag'rida bo'lib, turmush tashvishlariga sho'ng'idi. U barchasiga ulgurdi: ham rahbar, ham ona, ham ustoz bo'la oldi.

Qizbibi ayaning bir orzusi bor edi – oliy ta'lim olish. Ammo bu orzusi bir umr armon bo'ldi. Lekin u boshqalarga bu borada sharoit yaratish maqsadida imkon topildi deguncha, maktab-maorif ishlariga yaqindan ko'maklashdi. Jamoa xo'jaligi hududidagi maktablarga yordam berdi. Sinfxonalar qurdirdi. Ta'limni qo'llab-quvvatladi.

2000-yilning 24-avgust sanasida Qizbibi Husenova bu dunyoni tark etdi. Ha u sharaflil umr kechirdi. O'z umrini xalqqa bag'ishladi. Uning hayoti oddiy hayot emas edi. Bu fidoyilik tarixi edi. Bu – jasorat yo'li, Vatanga sadoqat namunasi edi! Shuning uchun ham uning nomi avlodlar qalbida mangu yashaydi.

Qizbibi Husenovaning nomini abadiylashtirish maqsadida Mudofaa vazirligi Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligi tomonidan u tahsil olgan Buxoro viloyati G'ijduvon tumanida joylashgan 2-umumta'lim maktabida vatanparvarlik tematik sinflari barpo etildi. Unga atab alohida xotira va sharaflar burchagi yaratildi. Unda Qizbibi Husenovaning xizmat yillari, erishgan yutuqlari va hayot yo'li aks ettirilgan. Zotan, bunday insonlar unutilmaydi!

**Podpolkovnik
Gulnora XODJAMURATOVA**



INSON QADRI VA SALOMATLIGIGA E'TIBOR

Mamlakatimizda Prezidentimiz tashabbusi bilan inson qadri, uning manfaatlarini va salomatligini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Ayniqsa, xalqimiz tinchligi va osoyishtaligini ta'minlashdek sharaflil vazifani ado etayotgan harbiy xizmatchilar hamda ularning oila a'zolarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularga munosib ijtimoiy sharoitlar yaratish, sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Muhimi, bunday xayrli tashabbus eng avvalo, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari salomatligini mustahkamlash, ular o'rtasida sog'lom

turmush tarzini keng targ'ib etish hamda tibbiy madaniyatni yuksaltirishga xizmat qilayotgani bilan ahamiyatlidir.

Ana shunday ezgu maqsadlar yo'lida Mudofaa vazirligi Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligiga qarashli respublikamizning deyarli barcha hududlarida joylashgan harbiy qismlarda Sog'liqni saqlash vazirligi hamda "Sog'lom avlod uchun" xalqaro xayriya fondi bilan hamkorlikda chuqurlashtirilgan tibbiy ko'riklar muntazam ravishda tashkil etib kelinmoqda.

Navbatdagi tibbiy ko'rik qo'mondonlikka qarashli Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumani hamda Sirdaryo viloyatining Shirin shahrida joylashgan harbiy qismlarda xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari uchun tashkil etildi.

Tadbirda jalb qilingan malakali mutaxassislar tomonidan ishtirokchilar keng qamrovli tibbiy ko'rikdan o'tkazildi. Xususan terapevt, kardiolog, nevropatolog, endokrinolog hamda boshqa yo'nalishdagi shifokorlar fuqarolar salomatligini chuqur tekshirib, zarur tavsiya va maslahatlar berdi. Shu bilan birga, ayrim kasalliklarni dastlabki bosqichda aniqlash va ularning oldini olishga qaratilgan profilaktik tadbirlar ham amalga oshirildi.

– Harbiy xizmatchilar uchun ko'rsatilayotgan bunday e'tibor va g'amxo'rlikni yuksak qadrlaymiz, – deydi katta serjant Akmal Rahimov. – Tibbiy ko'rik davomida mutaxassislar tomonidan salomatligimiz atroflicha tekshirildi. Eng muhimi, ayrim kasalliklarning oldini olish yuzasidan kerakli tavsiyalar oldik. Bu esa xizmat faoliyatimizni yanada samarali olib borishimizga xizmat qiladi.

– Vatan himoyachilari va ularning oilalariga qaratilayotgan e'tibor barchamizni mamnun etadi. Chuqurlashtirilgan tibbiy ko'riklar sog'lig'imizni nazorat qilib borish, kasalliklarning oldini olish hamda sog'lom turmush tarziga amal qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda, – deydi serjant Sardor Qodirov.

Ta'kidlash joizki, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari salomatligini muhofaza qilish, ularga zamonaviy va sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish borasida olib borilayotgan bunday ezgu ishlar Yangi O'zbekistonda inson qadri ulug'lanayotgani, har bir fuqaroning sog'lom va farovon hayot kechirishi davlat siyosatining bosh maqsadlaridan biri ekanining amaliy ifodasidir.

**Shahnoza SULTONOVA,
TOQQQ matbuot xizmati
bosh mutaxassisi**

OLIY HARBIIY TA'LIM MUASSASALARIGA NOMZODLARNI SARALASH VA QABUL QILISH TIZIMI (O'zbekiston va Turkiya tahlili misolida)



Zamonaviy Qurolli Kuchlarning jangovar shayligi va mudofaa salohiyatini yuqori darajada saqlab turish bevosita harbiy boshqaruv organlari uchun professional, intellektual va jismoniy jihatdan barkamol ofitser kadrlarni tayyorlash tizimiga bog'liqdir. Bu borada O'zbekiston va Turkiya davlatlari oliy ta'lim muassasalariga nomzodlarni saralash jarayoni yuqori darajada markazlashgan va bosqichma-bosqich tarzda amalga oshirilishi bilan xarakterlanadi.



O'zbekiston Respublikasida oliy harbiy ta'lim muassasalariga nomzodlarni saralab olish jarayonlari sohadagi fundamental huquqiy asos hisoblangan Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi oliy harbiy ta'lim muassasalarida o'qishga nomzodlarni saralab olish va qabul qilish, kursantlarni o'qishdan chetlashtirish va qayta tiklash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qaror talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

Mazkur normativ-huquqiy hujjatga asosan, oliy harbiy ta'lim muassasalarida o'qishga nomzodlarni saralab olish va qabul qilish jarayonlari harbiy-professional yo'nalish, dastlabki saralab olish va test sinovlari tadbirlarini tashkil etish kabi uzviy bog'liq bosqichlarni qamrab oladi. Milliy tizimning qat'iy xususiyatlaridan biri shundaki, belgilangan bir bosqichdan muvaffaqiyatli o'ta olmagan nomzodlar keyingi sinov bosqichlariga qo'yilmaydi.

Bu esa saralashning filtrlash mexanizmi yuqori darajada ishlashini ta'minlaydi.

O'zbekistonda ushbu jarayonni sifatli tashkil etish va muvofiqlashtirish uchun mas'ul vazirlik va idoralar tomonidan oliy ta'lim muassasalariga qabul

komissiyalari hamda mazkur komissiya tarkibida yo'nalishlar bo'yicha ixtisoslashgan kichik komissiyalar tuzilib, ular o'z faoliyatini har yili 10-martdan 1-sentabr gacha qadar tizimli ravishda amalga oshiradi.

Qiyosiy jihatdan yondashilganda, Turkiya Respublikasida oliy harbiy ta'lim muassasalariga nomzodlarni saralab olish va qabul qilish jarayoni bir nechta yirik normativ-huquqiy hujjatlarning mustahkam zanjiri asosida tartibga solinishi kuzatiladi. Bu yerda Turkiya Qurolli Kuchlari shaxsiy tarkibini shakllantirish va qabul qilishning umumiy huquqiy prinsiplarini belgilovchi bazaviy kodeks sifatida "Turk Silahli Kuvvetleri Personel Kanunu" nomli qonun xizmat qiladi. Mamlakat harbiy ta'lim tizimidagi eng katta islohotlardan biri bo'lgan Milliy mudofaa universitetining tashkil etilishi va faoliyat yuritishi esa "Kanun Hukmünde Kararname" asosida huquqiy jihatdan mustahkamlangan.

Mazkur hujjatga muvofiq, Turkiyadagi barcha oliy harbiy ta'lim muassasalari yagona markazlashgan tizimga birlashtirilgan bo'lib, bu qabul jarayonlarining bir nuqtadan boshqarilishiga imkon beradi. Bevosita abituriyentlarni

qabul qilishning protsessual tartibi va mezonlari esa "Milli Savunma Üniversitesi Öğrenci Temini Yönetmeliği" orqali batafsil tartibga solingan.

Ushbu nizomda nomzodlarga qo'yiladigan yosh, jismoniy va psixologik talablar, tibbiy va intellektual tekshiruvlarning o'tkazilish algoritmi aniq belgilab qo'yilgan.

Turkiya tizimining o'ziga xos demografik va ma'muriy shartlariga ko'ra, oliy harbiy ta'lim muassasalariga kirishda nomzodlarning yoshi 20 yoshdan oshmagan va eng muhimi, uylanmagan bo'lishi majburiy tartib hisoblanadi.

Hujjatlarni qabul qilish kampaniyasi odatda yilning yanvar-fevral oylarida boshlanib, Turkiya Milliy mudofaa universitetining markazlashgan yagona onlayn platformasi orqali to'liq raqamli formatda amalga oshiriladi. Ushbu platformaning eng ilg'or jihati shundaki, u mamlakatdagi boshqa tegishli davlat idoralarining ma'lumotlar bazalariga to'g'ridan to'g'ri integratsiya qilingan bo'lib, nomzod taqdim etgan ma'lumotlar inson omilisiz, avtomatik tarzda tekshiruvdan o'tkaziladi.

Saralashning birinchi bosqichida, ya'ni mart-may oylarida umumiy intellektual va akademik darajani aniqlovchi dastlabki markazlashgan test imtihonlari o'tkaziladi va ularning natijalari tezkorlik bilan e'lon qilinadi. Dastlabki sinovdan muvaffaqiyatli o'tgan abituriyentlar uchun iyun-iyul oylarida Milliy mudofaa universitetining bazasida kompleks saralash bosqichi tashkil etiladi. Ushbu kompleks bosqich doirasida nomzodlardan jismoniy tayyorgarlik

normativlari qabul qilinadi,

ular chuqurlashtirilgan individual-psixologik diagnostikadan o'tkaziladi, professional layoqatini aniqlovchi intervyu olinadi hamda ixtisoslashgan harbiy-tibbiy komissiya ko'rigi tashkil etiladi.

Turkiya tajribasining milliy tizimlardan farq qiluvchi eng muhim va alohida e'tiborga loyiq jihati shundaki, yakuniy qabul qarorini chiqarishda faqatgina test baliga tayanilmaydi, balki dastlabki bosqichdagi test natijalari, jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari va intervyudan to'plangan ballar matematik proporsiyada o'zaro qo'shilib, umumiy integrallashgan reyting asosida qabul amalga oshiriladi.

O'zbekiston va Turkiya davlatlarining oliy harbiy ta'lim muassasalariga nomzodlarni saralash tizimini qiyosiy-huquqiy jihatdan o'rganish asosida xulosa qilish mumkinki, har ikki mamlakat ham harbiy kadrlar sifatini oshirishda markazlashgan va ko'p bosqichli filtrlash modeliga tayanadi. Biroq Turkiya Respublikasining Milliy mudofaa universiteti tajribasida qo'llanilayotgan to'liq raqamlashtirilgan va davlat bazalari bilan integratsiyalashgan tizim, shuningdek, jismoniy sinov, intellektual daraja va intervyu ballarini umumlashtiruvchi kompleks reyting modeli yuqori samaradorlik namoyish etmoqda.

O'zbekiston milliy harbiy ta'lim tizimiga Turkiya tajribasining raqamli avtomatizatsiya, davlat idoralari bazalari bilan integratsiyalashuv hamda nomzodning yetakchilik va psixologik layoqatini umumiy balga ta'sir etuvchi teng huquqli mezon sifatida kiritish amaliyotini bosqichma-bosqich tatbiq etish, milliy armiyamiz uchun eng munosib va yuqori potentsialli ofitser kadrlarni saralab olish tizimini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

**Podpolkovnik
Rufat AHMEDOV,
mustaqil izlanuvchi**



MERGANLAR TAYYORLASH ETIKASI:

mas'uliyat, vijdon va intizom

Mergan – bu shunchaki uzoq masofadan nishonni aniq ura oladigan harbiy mutaxassis emas. U har bir qarori, har bir harakati va har bir o'qi uchun mas'ul bo'lgan shaxsdir. Mergan faoliyatida xato qilishga haqqi yo'q. Chunki bu kasbda birgina kichik xato inson hayoti bilan o'lchanadi.

Bir o'q – bir umr qaytmas qaror, o'zgarmas taqdir. Bu ibora mergan kasbining asl mohiyatini ifodalaydi. Har bir o'q ortida nafaqat nishon, balki inson taqdiri, jamiyat xavfsizligi va harbiy mas'uliyat turadi. Shu bois merganlarni tayyorlash jarayonida faqat texnik mahorat va jismoniy tayyorgarlik emas, balki axloqiy va etik mas'uliyatni shakllantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mergan tayyorlash etikasi tushunchasi. Etika bu insonning to'g'ri va noto'g'ri harakatni ajrata bilishi, vijdoniga quloq solib, ish tutishidir. Mergan etikasi esa bundan ham chuqurroq ma'noga ega. Bu buyruqni bajarish bilan birga, har bir qarorning oqibatini oldindan anglash demak.

Mergan oddiy askardan farqli ravishda tezkor emas, balki puxta o'ylangan qaror qabul qiladi. U ko'p kuzatadi, baholaydi va faqat mutlaq zarurat tug'ilgandagina harakat qiladi. Ana shu jarayonda etika mergan uchun ichki mezoniga aylanadi.

Mergan tayyorlashda quyidagi savollar doimo ongga singdiriladi: Nishon haqiqiy harbiy tahdidmi? Qaror buyruq va qonuniy me'yorlarga

mos keladimi? Bu harakat tinch aholiga zarar yetkazmaydimi? Otishdan boshqa imkoniyat bormi?

Bu savollar merganning har bir qarorini mas'uliyat bilan qabul qilishiga xizmat qiladi.

“Bir o'q – bir umr” tamoyili mergan kasbining axloqiy asosi. Bu ibora merganni shoshma-shosharlikdan, hissiyotga berilishdan va o'ylamasdan qaror qabul qilishdan saqlaydi.

Birinchidan, har bir o'q qaytmasdir. Otib yuborilgan o'qni ortga qaytarib bo'lmaydi.

Ikkinchidan, har bir o'q mergan zimmasiga og'ir mas'uliyat yuklaydi.

Uchinchidan, har bir o'q merganning kasbiy sha'ni va vijdoni bilan bog'liq.

Shu sababli mergan tayyorlash jarayonida bu tamoyil shior emas, balki hayotiy qoida sifatida qaraladi.

Merganlarni tayyorlashda bir qator muhim axloqiy mezonlar mavjud: buyruqqa sadoqat, mergan hech qachon o'z xohishiga ko'ra harakat qilmaydi. Har bir amal aniq vazifa va buyruq asosida bajariladi, tinch aholining daxlsizligi, mergan tayyorlashda tinch aholiga zarar

- 1 Birinchidan,** har bir o'q qaytmasdir. Otib yuborilgan o'qni ortga qaytarib bo'lmaydi.
- 2 Ikkinchidan,** har bir mergan zimmasiga og'ir mas'uliyat yuklaydi.
- 3 Uchinchidan,** har bir o'q merganning kasbiy sha'ni va vijdoni bilan bog'liq.



yetkazmaslik qat'iy qoida sifatida o'rgatiladi, vaziyatni to'liq baholash, har bir qaror atrof-muhit, sharoit va oqibatlar chuqur tahlil qilingandan so'ng qabul qilinadi, hissiyotlarga berilmaslik, g'azab, qo'rquv yoki qasos hissi mergan qaroriga ta'sir qilmasligi kerak, sovuqqonlik – etik mergan belgisi.

Psixologik tayyorgarlik va etika. Mergan etikasi psixologik barqarorlik bilan chambarchas bog'liq. Kuchli ruhiy bosim ostida ham to'g'ri qaror qabul qilish maxsus tayyorgarlikni talab etadi.

Mashg'ulotlarda merganlar stressli vaziyatlarga moslashtiriladi, murakkab axloqiy tanlovlar modellashiriladi. Bu ularni real sharoitda hissiyotlarga berilmasdan, etik me'yorlarga amal qilishga o'rgatadi. Psixologik jihatdan tayyor bo'lmagan mergan, hatto yuqori texnikaga ega bo'lsa ham, xavf tug'dirishi mumkin.

Zamonaviy sharoitda mergan etikasi. Zamonaviy texnologiyalar mergan imkoniyatlarini kengaytirdi, ammo mas'uliyatni ham oshirdi. Masofa uzoqlashgan sari axloqiy masofa yo'qolmasligi kerak.

Mergan qanchalik uzoqdan harakat qilmasin, u inson hayoti bilan bog'liq qaror qabul qilayotganini unutmasligi lozim. Texnologiya – vosita, etika esa asosiy mezon.

Merganlarni tayyorlash faqat nishonga aniq otishni o'rgatish emas. Bu – mas'uliyatli fikrlashni, vijdon bilan qaror qabul qilishni va qat'iy intizomni shakllantirish.

“Bir o'q – bir umr: qaytmas qaror, o'zgarmas taqdir”. Bu tamoyil mergan uchun doimiy ogohlantirish bo'lib xizmat qiladi. Etikaga amal qilgan mergan – professional, jamiyat uchun hech qachon pand bermaydigan ishonchli va xavfsiz mutaxassis.

**Merganlar tayyorlash markazi
katta yo'riqchisi
Sherzodbek ISOQOV
tayyorladi.**



Janar otasi tuproqqa qo'yilgan zahoti ortga qaytish taraddudiga tushdi. Jikkakkina qo'shni kampir uning harakatlarini hayronlik bilan kuzatar ekan, nasihatomuz dedi:

– Otangni endigina tuproqqa topshirdinglar. Bir-ikki kun tursang bo'lardi. Hali yo'qlovlar ko'p bo'ladi, ovuldan, olis-yovuqdan. To'ng'ich qiz bo'lsang...

– Opa, bu yerda mening qiladigan ishim qolmadi, qo'limdan kelganini qildim, – ayolning gapini shart kesdi. – Hamma narsa tiriklikka yarashadi.

– Qayerga ketasan?

– Otam so'nggi kunlarini kechirgan ijara uyga ketaman, uy egasi oy oxiriga qadar turishimga ruxsat bergan. Kechani o'sha yerda o'tkazaman.

– Men ham sen bilan ketaman, – ayollar orasida o'tirgan singlisi Dilbar qo'zg'aldi. Uning ortidan Tozagul singlisi ham bir qo'zg'aldi-yu, qaytib joyiga o'tirdi.

– Seni kim quvyapti, shu yerda qolaver, – deb gapga qo'shildi ukasi Omonboy.

Janar ukasi tomonga hatto qarab ham qo'ymadi. Ikki-uch sidra kiyim solingan sumkasini yelkasiga ilib, eshik tomonga yurdi. Ta'ziyaga kelgan qo'ni-qo'shni ularning ortidan jim qarab qoldi.

Ijara uyga kelib, o'zlariga ajratilgan xona ostonasida birpas turib qoldi. Boshidan ro'molini sekin sidirib oldi. Bir tola qorasi qolmagan sochlari yoyilib, yelkalarini quchdi. Chuqur uhh tortdi-da, xona to'ridagi karavotga qarab yurdi. Karavot yoniga tiz cho'kib, ko'rpa-yostiqlarni avaylab siladi, yostiqni bag'riga bosib, ko'zlarini yumdi. Yig'lamadi. Yig'lolmasdi. U erkaklar kabi g'amini ichiga yutardi. Yuzlari, ayniqsa ko'zlarining osti qorayib ketibdi.

Shu payt eshik sekin tiqirladi. Uy bekasi ekan. Patnisda yegulik ko'tarib chiqibdi.

– Opa, otangizning qayg'usi bilan bo'lib, bir piyola choy ham ichmagandirsiz, – deyda Janarga achinish bilan termildi ayol. – Jo'xori kurtik pishirgan edim, issig'ida yeb oling. Hozir qorachoy ham olib kelaman.

Beka chiqayotib, Dilbarga tizzalarini quchib bir nuqtaga termilib o'tirgan Janarni “yemakka undang” deb ko'zlari bilan ishora qildi.

Janar ovqatdan bir qoshiq yutdi-yu, ko'zlaridan tirqirab yosh chiqib ketdi. O'kirib yubormaslik uchun ro'molini og'ziga bosdi. Bu taomni otasi sevib yerd. Tomog'idan ovqat o'tmay qoldi. Og'ir o'ylarga botdi.

Beka qorachoy olib kirdi. Ayol o'zini o'nglab, bekaga yuzlandi:

– Saodat, senga ham, ering Reyimboyga ham katta rahmat. Uyingizda ijara turgan g'arib otamga ichib turgan oshingizdan ilindingiz. Bergan tuzlaringga rozi bo'linglar.

– Opa, qo'ying, shunaqa gaplarni, bizning ham qari otalarimiz bor,

o'shalarning xotirini qildik, xolos. Keling, siz yaxshisi shu ovqatdan ozgina totining. Bilaman, charchagansiz, bemalol dam oling. Biz bolalarim bilan erta saharlab Nukusga ketamiz. Ogohlantirib qo'yay, deb chiqdim.

– Shoshma, ijara pulidan qarzimiz bor, – Janar shunday deb sumkasiga qo'l uzatgan edi, beka shosha-pisha uni to'xtatdi:

– Yo'q-yo'q, qarzingiz qolmagan, bundan keyin qachon Chimboyga yo'lingiz tushsa, eshigimiz siz uchun ochiq. Reyimboy tayinladi, sahardan eshik taqillatib, bezovta qilma, dedi. Mayli, men bora qolay.

– Rahmat, – dedi Janar unga g'ussa to'la ko'zlari bilan boqib. – Otamning uch o'g'li bor edi. Ikkitasi u tirikligida o'tdi. Qolgan bittasi... Esiz, o'g'il degan nom, esiz, tiriklik...

– Janar opa, siz hech qaysi o'g'ildan kam emassiz, yaxshiyam sizdek qizi bor ekan, – beka shunday deb uning qo'llarini kaftlariga olib siladi. – Bizni unutib yubormang, kelib turing. Hozir yonib turibsiz, bilaman, birozgina dam oling.

Beka chiqib ketdi. Xonada opa-singil ikkisi qoldi. Qaynoq qorachoydan tanasida yengillik his qildi. Yuragidagi po'rtana bir nuqtaga qadalgan katta-katta ko'zlarida halqalanib ko'rinar. Qiyinchiliklar ko'raverib, diydasi qotib ketgan Dilbar ham uning ra'yiga qarab jim qolgan, qanday tasalli berishni bilmadi. O'ylariga g'arq o'tirgan ayol piyolani kaftlari orasida tutib, noma'lum tomonga tikilganicha gap boshlab qoldi:

– E'tibor berarmiding, yo'qmi, onam hech qachon mening otimni aytib chaqirmasdi. Qizim demagan, kampirning qizi derdi, hoy, deb chaqirardi. Kampirga meni o'zlari bergan-ku?! Aybim nima? To'ng'ichini ering ota-onasiga berishdek bo'lmag'ur udumga qarshi bora olmagan bo'lsa, menda nima ayb? Undan hech mehr ko'rmadim... Katta enam bilan bobom ketma-ket olamdan o'tdi. Yetim bo'lib qoldim. Ha, ha, rasmana yetim bo'lib qoldim. Ota-onam bag'rida sig'indidek yashadim. Saharlab suv tashib kelardim, sizlarning osh-ovqatingiz, kir-chiringiz zimmamda edi. Sizlarni ishga solishimga izn bermasdi. Ayniqsa, to'rva-qoqdisi Omonboy juda erka edi. Eslaysanmi, otam “Bu bolam qariganimda boqadi”, deb tizzasida olib o'tirardi. Hamma aytgani muhayyo edi. Yotib ovqat yerd. Tantiq o'sdi. Boshlariga balo bo'ldi.

Sakkizinchi sinf shahodatnomasi bilan Nukusdagi texnikumda o'qishga kirganimda onam “Bo'ldi, kampirning qizi buzilib ketadi, qursog'ida bola ko'tarib keladi...” dedi. U aytganidek bo'lmadi. Yaxshi o'qidim, Toshkentga kelayotganimda esa “Kampirning qizi er izlab ketyapti, koshki u birovga kerak bo'lsa”, deb kuzatdi. Onalar shunday bo'lsa kerak, deb o'ylaganman. Toki, dugonalarimning onalarini tanigunimga qadar. Ular onalari bilan sirlashsa, dardlashishsa, o'z onam ko'z oldimga kelardi. Sovuq, begona, bir marta ham bag'riga bosmagan...

Nega meni yomon ko'rgan? Nega? Kampir degani katta enam u bola tug'ganida qirq kun to'shakdan turg'izmay parvarishlard. Har yili tug'ardi, tashvishini chekmasdi. Toshkentda yashab qoldim. Kasalmand er bilan ikki bolani oyoqqa qo'ydim. Bolalarining boshiga ish tushsa bo'ldi, yonimga yuborar edi. Kasaliga qarash, ishga joylashtirish, ijara uy topish... uylanishdi, turmushga chiqishdi, uzoqlashishdi. Mendan to'g'ridan to'g'ri

yordam so'ramasdi, Janarga boringlar, derdi. Hech qachon mendan hol so'ramadi, hech qachon. Axir tug'gan qizi edim-ku?! Baribir unga achinaman, so'nggi kunlarini eslasam, yuragim achishadi. Uni ikki o'g'lining bevaqt o'limi yiqitdi. O'sha ikkisiga bino qo'ygan edi. Afsus... Ular tirik bo'lganida, ota-onamiz qariganida bu qadar xorlanmasdi.

Bir gal ta'tilni ular yonida o'tkazish uchun keldim. Yo'l azobi – go'r azobi. Vagonlar ichi dim. Issiq ezib tashladi. Har doimgidek onam na sevindi, na hayron bo'ldi. Qandaydir bo'shashgan ko'rindi. Ozib, yanayam qorayib ketibdi. Ularni ogohlantirmay kelgan edim. O'sha kuni yengil-yelpi choy ichib, yotib qoldim. Tong oqarmay uyg'onib ketdim. Chanqabman. Yuvini, suv olish uchun oshxonaga kirdim. Omonboy xotini ikkisi nonushta qilyapti. Saharlab. Qovurilgan tuxum, sariyog', asal, murabbo, har xil yong'oqlar, pechdan hozirgina olingan bo'rsildoq non, katta piyolalarda quyuq qorachoy. Stulda omonatgina o'tirib, suvimni ichdim. Omonboy dasturxonga manzirat qilish u yoqda tursin, hatto boshini ko'tarib qo'ymadi. Uni nechchi pullik odam ekanini bilganim uchun parvo qilmay, yana joyimga kelib uzandim. Xotinni ham o'ziga mosini topibdi.

Hademay tong yorishib ketdi. Qariyalarimning g'ivir-g'ivirini tuyib, oldilariga chiqdim. Kelin dasturxon yozayotgan ekan. Otamga yaqinroq o'tirdim. Ikki choynak choy olib keldi. Non ushatib, choyga ivitib, yeya boshlashdi. Kelin odob bilan pyogakda boshini solintirib o'tiribdi.

– Qani, yeyishga boshqa narsalar olib kelmaysanmi? – deb so'radim kelindan.

– Bori shu, – dedi kelin odobiga zarra putur yetkazmay.

Jon-ponim chiqib ketdi.

– Saharda ering bilan yeb o'tirganlaring nima edi?

– Ukangiz ishlaydi, yaxshi yeb-ichishi kerak, shunga...

– Bular-chi? – dedim ota-onamga ishora qilib. – Bular ishlaganmi? Pensiylarini tiyin-tiyinigacha qoqib olganlaringdan keyin tuzukroq yemak bermaysanlarmi?

– Bularni pensiyasi nima bo'lardi? Hamma narsa ukangizning bo'ynida, soliq to'lasa, bolalar...

– Qizim, qo'yaver, bo'ladi shuyam, – deb otam meni tinchlantira boshladi.

– Ering kim-u, sen kim bo'larding, – deb qo'l siltadim. Bozor-o'char qilib kelmasam, bo'lmaydi. O'mimdan turib, kiyim almashtirgani narigi xonaga o'tdim. Sumkamni olib endi chiqqan deganimda, onamning hazin ovozi eshitildi:

– Tozagulnikiga olib boring, bir haftadan oshdi, issiq ovqat yeganim yo'q, madorim qurib boryapti. Davolanishga ketganingizda, hatto nonni ham qulflab qo'ydi, Omonboyngiz.

Qotib qoldim. Shumi, allada aziz, to'rvada mayiz qilib, papalab o'stirilgan “boquvchi?!”

O'sha kuni bozor-o'char qilib qaytib kelsam, darvoza yopiq. Kuchim boricha eshik qoqdim. Qo'shni chiqib keldi. Uyaldim.

– Chol-kampir bir soatlar avval chiqib ketdi. Omonboy uyda-ku, nega ochmayapti? “Omonbooy!” deb ovoz bersa-da, darvoza ochilmadi. U meni uyga qo'ymoqchi emas. O'z opasiga, yelkasida ortmoqlab, katta qilgan opasiga eshik yopdi. Qo'shning oldida yer yorilmadi-yu, yerga kirib ketmadim.

Tozagulga telefon qildim. Chol-kampir ularnikida ekan. Yetib bordim. Ovqatlanib o'tirishibdi. Ufff... Kuyovning qiyofasi... uning o'zidan mamnun boqishi... Ikki g'aribni to'ydirayotganlik lazzati, o'zini ularning o'g'lidan yaxshiroq ekanini tuyish lazzati. Ikkisi ham issiq ovqat ichayotganiga boladek shod. Nomusdan yonib ketdim. O'zim bilan Toshkentga olib ketaman, desam, ko'nmadilar. Xayolimga sen kelding, farzandsizlikdan turmushing buzilib qaytganingda, Omonboy seni uydan quvib solgan edi. O'sha kuniyoq ijara uy topdim. Tozagul yengil tortganini yashirgani yo'q. Ikkisining issiq-sovug'iga qarab o'tirasam, deb Nukusdan seni chaqirdim. Ijarasi, osh-ovqatini zimmamga oldim. Ko'nglim biroz tinchlandi. Ammo ikkisining ham ko'zi Omonboy tomonda bo'ldi. O'zlari qurgan uy tomonda bo'ldi. Ko'p o'tmay, onam olamdan o'tdi. Otamga og'ir bo'ldi.

Otamni yara-chaqa bosib ketganini eslaysanmi?

– Ha, – dedi Dilbar mungli ovozda. – Ahvoli og'ir edi. O'zi bilmasdi, og'riq yo'q edi-da. Agar sen kelib olib ketmaganingda, o'sha paytlari o'lib ketar edi, qarovsizlikdan. Omonboyini hech kim yo'lga sololmadi. Mening esa topganim o'zimga zo'rg'a yetar edi.

– Toshkentga ketishga arang ko'ndirganman. Shifokor ko'rib, “Sal kech qolsang, amputatsiya ham yordam bermasdi”, dedi. Tuzalib qolgach, uyga sig'may qoldi. Ketamanga tushdi. Chimboyda uni birov kutmasligini bilaman-ku. Yubormayman, dedim. Yig'ladi. Boladek o'ksib-o'ksib yig'laganiga chiday olmadim. Yana Chimboyga qaytarib keldim. O'sha ijara uyga. Men bilan qolsa bo'lardi-ku?! O'g'lim yer-u ko'kka ishonmay, parvarish qiladi. U esa ketaman, deb qo'ymadi.

– Otamning yoshidagi odam uchun oshyonidan uzilish o'lim bilan teng. Ijara uy bo'lsa ham, o'z elining ichida-da. Eskilar eldan ajrala olmaydi.

– O'zi qurgan uyidan o'z o'g'li quvdi. Og'zidagi luqmasini ham ilingan o'g'li... Yuragim og'riyapti. Traktorchilik qilib, katta oilani boqqan otam kun kelib, kuyovi qo'lidani ichgan bir kosa ovqatga sevinib o'tirishini ko'rish qanchalar og'irligini bilsang edi...

– Nimadir tinimsiz yonib-o'chyapti, telefonmi? – dedi Dilbar xiyol ochiq turgan sumkaga ishora qilib.

Ayol telefonni chiqardi. O'g'li qo'ng'iroq qilibdi, yuzlab marta. Yana qo'ng'iroq keldi. Qarshisidagi stolga qo'yib, ovozini balandlatdi va boshini orqaga tashlab, ko'zlarini yumdi, jim eshita boshladi:

– Oyijon, yaxshimisiz, juda xavotir oldim. Kechiring, shunday og'ir paytda yoningizda bo'lolmadim. Dadam sal o'ziga kelib, Chimboyga boraman, deb turib olgan. Sizni yolg'izlanib qoldi, deb tashvish qilib o'tiribdi. Hamshiralarga quloq solmaydi, ahvoli yaxshi emas. Hammang vahima qilasan, deydi. Sizni o'ylab, siqilyapti. Samolyotga chipta buyurtma qilganman, poyezdda charchaysiz. Dadam siz bilan gaplashmoqchi... “Janarim...” degan xasta, ammo qadrdon ovozni eshitib boshini ko'tardi, telefonni olib qulog'iga tutdi, so'ng ko'ksiga bosib, ko'zyoshlarini tutib qoladigandek lablarini qimtdi, bo'lmadi, entikib yig'lab yubordi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-noyabrdagi "Aholi salomatligi va millat genofondini giyohvandlik va narkojinoyatlardan samarali himoya qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonidan aholini, birinchi navbatda, yoshlar salomatligini hamda millat genofondini samarali himoya qilish maqsadi ko'zlangan. Davlatimiz rahbarining 2024-yil 6-mayda "O'zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo'yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta'sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to'g'risida" farmoni qabul qilingan bo'lib, unda sohadagi davlat siyosatining istiqbolli yo'nalishlari belgilangan.

Bugungi kunda ayrim yoshlar, o'smir yigitlar tengqurlari ichida o'zini kattalarday tutish taqlidi, mustaqillik, baquvvatlik, mardlik belgisi, deb cheka boshlasa, qizlarda "zamonaviy moda" deb o'ylab, boshqalardan o'zini ajralib turishga intilish ishtiyoqidan olifta ko'ringisi va tannozlik qilib, yigitlarga yoqishni o'ylab chekishni odat qiladi. Vaholanki, bu juda katta yanglishishdir. Hatto ayrim yoshlar o'zini bu masalada ilg'orroq fikrlayotganday namoyish qilish uchun "elektron sigareta"lardan, chilim, nikotinli snyus, nikotinsiz suyuqlik, nosvoy va boshqa mahsulotlar qabul qilayotganini ko'rish mumkin.

Elektron sigareta elektr toki (*akkumulyator*) yordamida moslamadagi nikotinli yoki nikotinsiz suyuqlikni qizdiradigan va iste'molchi tomonidan nafas orqali yutiladigan aerazol (*bug'-tutun*) hosil qiladigan bir marta ishlatiladigan moslama bo'lib, ayrim nazoratsiz qolgan yoshlarimizning "qiziqarli mashg'ulotiga" aylangan. Bu mamlakatimizda faoliyati yosh avlodni tarbiyalash bilan bog'liq hech bir kimsani befarq qoldirmaydi. Chunki bugungi yoshlar jamiyatimizning ertangi kun davomchilari, kelajagimiz

AQL-IDROK OG'USI

egalaridir. **Ularni zararli odatlarning xavfli jihatlari, mohiyati haqida dunyoqarashini kengaytirmasak, biz uchun buni kimdir tashqaridan kelib, yoshlarni bu yo'ldan qaytarib, tarbiyasidagi qusurni tuzatib bermaydi.** Ichkilik juda qadimdan aql-idrok og'usidir. "Mastlik telbalikni mashq qilishdir", degan edi Pifagor.

Tamaki mahsulotlarini chekish nafaqat chekuvchining o'ziga, jamiyatga ham zarar keltiradi. Chekmaydigan odamlar chekuvchilar buruqsatib chiqarayotgan tamaki tutuni bilan nafas olishga majbur bo'ladigan holat passiv chekish deb ataladi. Shu bois chekadigan odam nafaqat o'zi, balki atrofidagi odamlar sog'lig'iga ham zarar yetkazadi. Chekilgan vaqtda atrof havosidagi uglerod (II) oksidi miqdori ba'zan shunday darajaga yetib boradiki, bu sanoatdagi ish o'rinlarida yo'l qo'yiladigan konsentratsiyadan ham ortib ketadi. Havoning zararli moddalar bilan shu tariqa to'yinishi mehnat unumdorligini pasaytiradi. Chekadigan odamlar og'zidan chiqadigan tutun ta'sirida chekmaydigan kishilarda astma xurujlari boshlanishi, allergiya avj olishi, yurakning ishemiya kasalligi kuchayib ketishi mumkin. **Chekadigan ota-onalarning bolalari chekmaydiganlarning farzandlariga qaraganda, nafas organlari kasalliklariga ko'proq moyil bo'ladi. Jumladan, bunday bolalarda bronxit va zotiljam ikki baravar ko'p uchraydi.**

Tamaki tutuni tarkibida poloniy, radioaktiv qo'rg'oshin va vismut borligi uchun u chekadigan odamning o'zigagina emas, balki shu tutun dimog'iga kiradigan hamma, birinchi galda, bolalar uchun xavfli. Uyuq buzilishi va ishtaha yo'qolishi, me'da-ichaklar faoliyatining izardan chiqishi, ortiqcha tajang bo'lish, yaxshi o'zlashtirmaslik va hatto jismoniy rivojlanishda orqada qolish – tamaki mahsulotlarini chekish tufayli ro'y beradigan hodisalar ro'yxati.

E'tibor qilinsa, ba'zi tamaki mahsulotlari dizaynida zararli oqibatlar haqidagi suratli ogohlantirishlarga ko'zingiz tushadi. Ammo shunday bo'lsa-da, bilib, ko'rib, oqibatini tasavvur qilib, ayrim odamlar baribir bu zarar odatni kanda qilmayapti. Insonga aql o'zi uchun hayotiy tanlovlarda to'g'ri qaror qabul qilishga berilgan. Chekish juda urf bo'lib, jamiyat uchun xavfli hodisa keng tarqalgan. Kashandalar atmosferani zaharlab, havodagi kanserogen moddalar konsentratsiyasini oshiradi. Turmushda, ishlab chiqarishda va ko'p qavatli uylarda, o'rmonlarda yong'in ko'payishiga sabab bo'ladi. Chekmaydigan kishilar tutun bo'lib ketgan xonalarda uzoq qolib ketishga majbur bo'lganida ko'pincha bosh og'rish, yurak o'ynashidan, lanjlikdan shikoyat qiladi va chekadigan odamlar qanday xavf-xatarga duch keladigan bo'lsa, bunday joylarda ular ham aslida xuddi shunday zararli oqibatlar girdobida qoladi. **Shu sababli jamoat joylarida chekishga qarshi keskin va ta'sirchan kurash olib borish zarur.**

Nikotin odamning xotirasini pasaytirib, aqliy mehnat bilan shug'ullanadigan inson uchun zarur bo'lgan iroda kuchi, qobiliyatini susaytirib qo'yadi. Irodasi sust odamda

esa bu moddalarga qaramlik boshlanadi. Inson ongidagi qaramlik uni zaiflashtirib, o'z kuchiga ishonchsizlik, fikrlarida, harakatlarida qat'iyatsizlik, maqsadga intiluvchanlikning yo'qolishini keltirib chiqaradi. Inson o'z qadriyatlariga xos bo'lmagan ishlarni ayni shunday zararli odatlar ta'siri ostida sodir etishi mumkin. Insoniyat tarixidagi juda ko'p dinlarda mast qiluvchi ichimliklar ichish qoralanadi.

Ichkilik va giyohvandlik barcha qabihliklar sababchisidir. Bunday illatlarga duchor bo'lgan shaxs jamiyatdagi taqiqlangan har qanday harakat yoki qilmishlarni sodir etish ehtimolini oshirgan. Xo'sh, aslida ichishga sabab bo'layotgan omillar qanday? Shotland shoiri Robert Byorns ichkilikbozlikka sabab bo'ladigan vajlarni juda qattiq zaharxandalik bilan sanab o'tadi.

Alkohol odamning eshitish, ko'rish qobiliyatiga ham ta'sir qiladi, ya'ni ta'sirchanlikni susaytiradi, zehnni pasaytiradi. Shu sababli spirtli ichimlik ichishga moyil odamlarga avtomobil rulini, stanok va priborni boshqarish pultini ishonib topshirish mumkin emas.

Ichkilikbozlik, giyohvandlik ta'siri idrokni, aqlni xiralashtirgani bois kishining ko'plab jinoyatlar sodir etishiga sabab bo'lgan. Aslida bu moddalar inson hayoti, oziqlanishi uchun ehtiyojdagi o'ta zarur moddalar sanalmaydi. Ayollar tamaki iste'mol qilishi hamisha odobsizlik belgisi deb hisoblangan va qoralangan. Chekuvchi, ichuvchi ayol jamiyatga sog'lom, ruhiyati barqaror farzand dunyoga keltirmasligi ko'p olimlar kuzatuvda isbotlangan. Buni kelajakda millat tarbiyachisi bo'ladigan qizlarimizga maktablarda "Tarbiya" darslaridan uqtirish lozim. O'g'il bolalarni ham millat davomchisi sifatida munosib tarbiyalashimiz kerak. Zararli odatlar ular hayotida fojiali oqibatlarga olib kelishini tushuntirishimiz zarur.

Giyohvand moddalarga kashandalik, ichkilikbozlikka berilish kishi hayotini izardan chiqarib, narkojinoyatlar sodir etishiga sabab bo'lmoqda. Bunday jinoyatlar aslida zararli odatlar oqibatida yuzaga kelgan baxdaxlik hosilasidir.

Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida insonga xos yaxshi va yomon xulqlar haqida ma'lumot beradi. Ushbu olim **"bir qismi o'z nafsimizga, bir qismi bir-birimizga qarshi ishlatmak uchun kerakli bo'lgan yaxshi xulqlar:** fatonat, diyonat, islomiyat, nazofat, g'ayrat, riyozat, qanoat, shijoat, ilm, sabr, hilm, intizom, miqyosi nafs, vijdon, Vatanni suymak, haqqoniyat, nazari ibrat, iffat, hayo, idrok va zako, hifzi lison, iqtisod, viqor, xavf va rajo, itoat, haqshunoslik, xayrixohlik, munislik, sadoqat, muhabbat va afvdir. Yomon xulqlar: insonlarni saodatli adabiyatdan mahrum qiladigan. Janobi Haq qoshida va xalq nazarida mazmum bo'lgan axloqi zamimalar: g'azab, shahvat, jaholat, safohat, hamoqat, atolat (*dangasalik* va *yalqovlik*), namimat, g'iybat, haqorat, jibonat, hasad, nifoq, tama, zulmatdur", deb ta'riflaydi.

Abdurauf Fitrat "Oila yoki oilani boshqarish tartiblari" asarida: "Iroda va ixtiyorimiz besh holat – tasavvur, muhokama, solishtirish, qaror va ijroning natijasi.

Farzandimizning axloqiy tarbiyasini nihoyaga yetkazmoqchi bo'lsak, ana shu qaror va ijroni yaxshilashimiz darkor. Buning uchun:

1. Ota-onalar bolaning badan va fikriy tarbiyasida hech qanday sustkashlikka yo'l bermasin. Sog'lom tan va aqldan mahrum bo'lsa, azm va irodasi ham nuqsonlarga g'arq bo'ladi.

2. Bola huzurida ota-onalar o'z azm-u sadoqatlarini zaif, irodalarini nuqsonli qilib ko'rsatmasinlar, toki go'dak buni ko'rib, ibrat uchun taqlid qilmasin.

3. Bolalarga buyuk va aqlli, ibratli insonlar haqida ertak va afsonalarni ibrat uchun ko'proq aytib berish lozim", deb ta'kidlaydi.

O'zbek adabiyotida hayotiy haqiqatni samimiy, xalqona va o'tkir qalam bilan tasvirlay olgan yozuvchi O'tkir Hoshimov asarlarida ichkilik (*aroqbozlik*)ning inson shaxsiyati, oila va jamiyat hayotiga salbiy ta'siri yoritiladi. Yozuvchi ijodida bu illat faqat bir shaxsning emas, balki butun jamiyatning axloqiy-ruhiy muammosi sifatida talqin etiladi. **Uning asarlarida inson ruhi, axloq, mehr-oqibat, vafo kabi umuminsoniy qadriyatlar asosiy o'rin tutadi. Shu bilan birga, yozuvchi o'z asarlarida jamiyatda uchraydigan salbiy illatlar, ayniqsa ichkilikbozlikni qattiq tanqid qiladi.** Uning ijodida ichkilik insonni faqat jismonan emas, balki ma'nadan ham vayron qiluvchi kuch sifatida ko'rsatiladi.

Muallifning "Dunyoning ishlari", "Ikki eshik orasi", "Tushda kechgan umrlar", "Buyuk tuyg'u" kabi asarlarida ichkilikka berilgan insonlar fojiali taqdir orqali ko'rsatiladi. Yozuvchi bunday qahramonlarni jinoyatchi sifatida emas, balki hayotning og'ir sinovlariga dosh berolmagan, ruhan zaif insonlar sifatida tasvirlaydi. U shu orqali o'quvchida nafrat bilan birga rahm tuyg'usini ham uyg'otadi. Masalan, "Ikki eshik orasi" asarida ichkilikboz erkak o'z oilasini, mehri, mas'uliyatni unutadi. Uning harakatlari nafaqat o'zini, balki yaqinlarini ham azobga soladi. Yozuvchi ichkilikni "hushni o'g'iraydigan, insonni o'zidan begona qiluvchi baloga" o'xshatadi.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qiladigan bo'lsak, ota-onalar, pedagoglar, kerak bo'lsa, butun jamiyat a'zolari kelajagimiz bo'lgan yoshlarni zararli odatlarga berilmasligini nazorat qilishimiz lozim. Farzandlarimizga oziq-ovqat xavfsizligi, ekologik toza mahsulotlar genofond uchun foydali ekanini, turli kimyoviy moddali ichimliklarga o'rganmasligini to'g'ri tushuntirishimiz lozim. Bugungi kunda yoshlar turli energetik ichimliklar ichishi ham sog'liqqa foydali emasligini, bunday mahsulotlarga nisbatan "immunitet" xosil qilish muhim.

Bunday illatlarning oqibati haqida yoshlarning bilimlarini kengaytirishimiz lozim. Maktabda, ta'lim muassasalarida zararli odatlarning oldini olish uchun turli tashviqot va targ'ibot tadbirlari, rasmlar, badiiy ijod namunalari, insholar, shiorli yorliqlar tanlovlari o'tkazish, aholi orasida sog'lom turmush tarzi, ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlar iste'molini targ'ib qiladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar uyushtirish maqsadga muvofiq.

**Sayyora TO'RAYEVA,
Mira BEKCHANOVA,
Jamoat xavfsizligi
universiteti o'qituvchilari**

“G'alaba bog'i”dagi o'ylar

ULAR GAPIRMAYDI, ammo hammasini ko'rgan

Tarix haqida faqatgina kitoblar, filmlar emas, jim turgan zirhli texnikalar ham ko'p narsalarni gapirib berishi mumkin. Insoniyat boshdan o'tkazgan eng dahshatli sinov – urush millionlab taqdirni o'zgartirib yuborgan. Biroq o'sha mudhish yillardan bugungacha yetib kelgan ayrim “guvoh”lar bor. Ular gapirmaydi, ammo ko'rganlarini unutmagan.



Zang bosgan zirhlar, o'q izlari qolgan po'latlar va bir zamonlar jang maydonlarini titratgan harbiy texnikalar bugun tarixning tirik guvohiga aylangan. Har safar poytaxtimizdagi “G'alaba bog'i”ga borganimda, u yerdan o'zim uchun yangi tarix, yangi ma'lumotlar topishga harakat qilaman. Bu yerga tashrif buyurgan insonlarning nigohi, avvalo, ulkan jangovar harbiy texnikalarga tushadi. Shu jumladan, mening ham. Bir qarashda ular oddiy eksponatlardek tuyuladi. Ammo bu temir qurollarga qarab turar ekanman, bir paytlar ularning ichida o'z oilasiga qaytishni orzu qilgan otalar, yosh askarlar bo'lganini tasavvur qildim.

Urush. Insoniyat yaratgan eng dahshatli fojialardan biridir. U nafaqat shaharlarni vayron qiladi, balki inson qalbidagi ishonch va tinchlik degan tuyg'ularni yemirib yuboradi. Bu davrda urush faqat frontda kechmagan. Aslida front ortidagi vaziyat ham og'ir kechgan edi. Onalar ko'zidagi yosh, jang maydonidagi askarning yuragidagi qo'rquv va g'alabaga bo'lgan umid yillar o'tib ham tarix sahifalarida yashab qoladi. Ana shu tarixning bir qismi sifatida yaratilgan harbiy texnikalar ham oddiy metall buyum emas. Harbiy qudrat timsollari mana shu xotiralarning bir qismidir.

Ayniqsa, bog' hududiga kiraverishdagi tanklar har bir kishining e'tiborini tortadi. Bir paytlar qirg'inbarot janglarda qatnashgan bu “temir tulpor”lar askarlar uchun qalqon vazifasini bajargan. Tanklarning g'ildiraklari ostida vayron bo'lgan yo'llar, portlashlar va alangalar urushning naqadar shafqatsiz ekanini namoyon etadi. Qalin zirh ortida jang qilgan insonlar har soniyada



hayot va mamot oralig'ida yashagan. Ammo jimlik ortida shafqatsiz janglar, og'ir sinovlar va yuksak jasoratlari namunalari yashiringan.

Xususan, Ikkinchi jahon urushining ramziga aylangan T-34 tanki o'z davrining eng muvaffaqiyatli jangovar mashinalaridan biri hisoblanadi. Mutaxassislar uning mustahkam zirhi, harakatchanligi va ishonchligini urush taqdiriga ta'sir ko'rsatgan omillardan biri sifatida e'tirof etadi. Shu sababli ham T-34 ko'plab tarixchilar tomonidan XX asrning eng mashhur tanklaridan biri deb baholangan. Tanklarning jangovar qudrati, avvalo, ularni boshqargan insonlarning jasoratiga bog'liq edi. Urush yillarida minglab o'zbekistonlik askarlar tank qo'shinlari, piyoda qismlar va artilleriya safida mardonavor kurash olib bordi. Ular orasida general Sobir Rahimov alohida o'rin tutadi.

General Rahimov frontda chorasiz vaziyatlardagi taktik mahorati va matonati bilan dong taratgan. O'zbek qahramoni matonati tufayli xalq orasida “Mening temir generalim” nomi bilan atala boshlangan. Bu unvon Rahimovning nafaqat irodasini, balki uning chekinishni bilmas xarakterini ham anglatardi. Shuningdek, nemis armiyasining generali Hoffman sovet tanklarini oson yo'q qiladigan yangi artilleriya qurolini sinab ko'rish uchun asirga tushgan Farhod Abbosovni qurolsiz, yalang'och T-34 tankiga boshliq qilib o'tqazadi. Dushman barcha qurollarini unga qaratib, “tirik nishon”

qilmoqchi bo'ladi. Biroq Farhod o'zining aql bovar qilmas manyovrlari bilan olov chizig'idan eson-omon o'tib, nemislarning eng zamonaviy texnikalarini olib ketayotgan eshelonni yakson qilib tashlaydi. Uning o'limga tik boqib, tankni poyezd tomon boshqarishiga nemis generali ham tan beradi.

Harbiy samolyotlar ham urush taqdirini o'zgartirgan kuchlardan biri edi. Ularning osmonda paydo bo'lishi jang maydonidagi vaziyatni butunlay o'zgartirib yuborgan. Ayniqsa, urush yillarida qo'llanilgan hujumkor samolyotlar frontdagi janglarning borishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Masalan, Il-2 “Ishg'olchi” samolyoti tarixda eng ko'p ishlab chiqarilgan harbiy texnikalardan biridir. Urush yillarida u 36 mingdan ortiq ishlab chiqarilgan. U o'zining zirhli korpusi va kuchli qurollari bilan dushman tanklari hamda harbiy texnikalariga sezilarli talafot yetkazgan. Jangchilar

samolyotni “Bukri”, “Uchar tank”, “Ilyusha”, nemislar esa “Qora ajal”, “Sement bombardimonchi”, “Go'sht maydalagich” deb ta'riflagan.

Memorial hududidagi bu texnikalar guruhi yosh avlodga o'tmish haqida so'zlaydi. Ular insoniyat taraqqiyoti ortida qanday og'ir sinovlar yuz berganini eslatib turadi. Ularning eng muhim jihati shundaki, faqat urush quroli emas, balki tarixning bir bo'lagidir. Har bir zirhli mashina yoki artilleriya vositasi ortida minglab qurbonlar va qahramonliklar mujassam. Chunki urush faqat jang qilgan askarlar bilan emas, balki front ortida tun-u kun ishlagan insonlar mehnati bilan ham olib borilgan. Zavodlarda ishlab chiqarilgan har bir tank va samolyot millionlab insonlarning umidiga aylangan edi. Aynan o'sha zavodlardan chiqqan va xalqning umidlari evaziga qurilgan “po'lat lochinlar”ni havoga ko'tarib, ko'kda fashistlar ustidan

dahshatli hukm o'qiganlar esa o'zbekning yengilmas va jasur uchuvchilari bo'ldi! Ulardan biri “G'alaba elchisi” deb nom olgan Abdusamat Taymetovdir.

Xullas, yoshlar uchun bunday maskanlarning ahamiyati juda katta. Chunki tarixni kitob orqali o'qish boshqa, uni ko'z bilan ko'rish esa mutlaqo boshqa hissiyotni beradi. “G'alaba bog'i”dagi texnikalar insonni o'tmish

haqida chuqur o'ylashga undaydi. U yerda turib, inson bir haqiqatni anglaydi: tinchlik juda qimmatli ne'mat.

Bugun jim va harakatsiz turgan bu temirlar bir vaqtlar tarixning eng dahshatli kunlarini boshdan kechirgan. Ular odamzodga urushning qanday oqibatlariga olib kelishini eslatib turuvchi sukutdagi hayqiriqdir. Balki shu sababli ham bunday yodgorliklar faqat o'tmishni emas, kelajakni ham asrashga xizmat qiladi. Chunki tarixni unutgan xalq uning og'riqlarini yana qayta boshdan kechirishi mumkin.

Temirdan yasalgan bu ulkan mashinalar bugun jang qilmayapti. Ammo ular hamisha insoniyatga eng muhim haqiqatni eslatib turadi. Bu haqiqat – tinchlikni saqlab qolish deb ataladi!

Hojiakbar BEKTOSHEV,
Jahon tillari universiteti
2-bosqich talabasi

Yong'in xavfsizligi

Suyultirilgan gaz ballonlaridan foydalanishda xavfsizlik qoidalariga qat'iy amal qilish muhim hisoblanadi.

Gaz ballonni o'rnatish uchun, avvalo, loyiha ishlab chiqiladi va joylardagi gaz idoralari bilan kelishiladi. Shundan so'ng ishlatishga ruxsat beriladi. Bir xonadonda 2 tadan ortiq gaz ballonni saqlash va ishlatish mumkin emas. Gaz plitasini eshik, deraza va elektr toki manbaidan 0,5 metr masofada o'rnatish lozim. Xona ichidagi harorat 45 darajadan oshmasligi, ballon gaz plitasidan kamida 1 metr uzoqlikda va maxsus temir shkafga o'rnatilishi kerak.

Suyultirilgan gazlar xususiyatiga ko'ra, havodan og'ir bo'lgani sababli va gaz tashqariga chiqqanida chuqurlikka to'planishini e'tiborga olib, gaz ballonlarini 1-qavatda joylashgan eshik va derazalardan yarim metr, yerto'la shaklidagi qavatlarning eshik va derazalaridan hamda kanalizatsiya lyuklaridan, chuqurliklaridan kamida



SUYULTIRILGAN GAZ ballonlaridan foydalanish qoidalar

3 metr uzoqlikda joylashtirish shart. Gaz ballonlariga ishlatiladigan rezina shlanglar standart talablarga javob berishi muhim. Olov yordamida gaz sizish joylarini aniqlash mumkin emas.

Ko'p qavatli binolarda yerto'la, kirish yo'laklari, yashash xonadonlarida suyultirilgan gaz ballonlarini saqlash va o'rnatish taqiqlanadi. Gaz ballonlari tugagandan so'ng ballon ichida qolgan suyuqlikni xonadonlarda idishlarga quyish va uni saqlash, yoqilg'i sifatida foydalanish qat'iy man etiladi. Ushbu suyuqlik o'ta xavfli yonish va chaqnash

xususiyatiga ega, shu sababli u maxsus joylarda mutaxassislar tomonidan bo'shatiladi.

Suyultirilgan gaz to'ldirilgan ballonlarning tepa qismiga tamg'alash yo'li bilan ishlab chiqarilgan korxonaning belgisi, ballonning raqami, bo'sh ballonning haqiqiy og'irligi, ishlab chiqarilgan va qayta sinovdan o'tkazilgan muddati, ishchi va sinovdan o'tkazish gidravlik bosimi, ballonning sig'imi 55 litrdan ko'p bo'lganda standart raqamlari bo'lishi shart.

Uy sharoitida gaz ballonlarini ta'mirlash, payvandlash va boshqa turdagi texnik xizmat ko'rsatish ishlarini bajarish qat'iy man etiladi. Gaz ballonlaridan faqatgina belgilangan maqsadlarda foydalanish, ularga talabga javob bermaydigan ulash moslamalarini o'rnatish va rezina shlanglarni ishlatish taqiqlanadi.

Hovlidagi yoki xonada o'rnatilgan gaz ballonlarida bosimni pasaytirish moslamasi mavjud bo'lishi shart va qoida asosida o'rnatish lozim. Gaz ballonlarini asosiy va qo'shimcha kirish-chiqish yo'laklari hamda avtomobil o'tish joylari oldida saqlash mumkin emas. Quyosh nuri tushadigan joylarda gaz ballonlarni usti yopilishi shart. Gaz ballonlarini suyultirilgan gaz bilan belgilanmagan joylarda to'ldirish qat'iy man etiladi.

Yuqoridagi xavfsizlik qoidalariga amal qilish orqali siz o'zingiz va yaqinlaringiz hayotini, salomatligini muhofaza qilgan bo'lasiz.

Podpolkovnik P. BOYQO'ZIYEV,
Samarqand garnizoni yong'in
nazorati inspeksiyasi boshlig'i

Mushohada

YONG'INDAN QOLGAN IZLAR...

Joriy yilning boshidan Toshkent shahrida sodir bo'layotgan yong'inlar jamoatchilik orasida jiddiy xavotir uyg'otmoqda. Ayniqsa, ushbu hodisalarning savdo majmualari va tijorat obyektlarida yuz berayotgani masalaga yanada jiddiy yondashishni talab qilmoqda. Bu voqealar tasodifiy holatlarmi yoki xavfsizlik tizimidagi muammolarning natijasimi?

Kun.uz xabariga ko'ra, 2026-yil 31-yanvar kuni poytaxtdagi "Aviator" savdo majmuasida joylashgan "Korzinka" filialida yong'in sodir bo'lgan. Ushbu fojia oqibatida 3 yoshli bolaning vafot etgani voqeaning naqadar og'ir ekanini ko'rsatadi. Oradan ko'p o'tmay, 11-fevral kuni "Novza" metrosi yaqinidagi yana bir savdo obyekti, yana "Korzinka" tarmog'iga tegishli filialda yong'in kelib chiqqani haqida xabarlar tarqaldi. Rasmiy tafsilotlar to'liq ochiq qolgan bo'lsa-da, ketma-ket yuz berayotgan hodisalar jamoatchilikni befarq qoldirmadi.

Shuningdek, 21-fevral kuni tongda "Izza" qurilish mollari bozori hududida ham yong'in sodir bo'ldi. Yaxshiyamki, bu hodisada jabrlanganlar haqida ma'lumot berilmadi, biroq bir oy ichida bir nechta yirik savdo va qurilish obyektlarida yong'in kuzatilgani muammoning qanchalik jiddiy ekanini ko'rsatadi.

Bu hodisalar mart va aprel oylarida ham davom etdi. Xususan, yangi qurilayotgan "Xonsaroy" turarjoy majmuasi hududida ham yong'in sodir bo'lgani qayd etildi. Bu esa nafaqat foydalanilayotgan, balki hali to'liq ishga tushmagan obyektlarda ham xavfsizlik talablariga yetarli e'tibor qaratilmayotganini ko'rsatadi.

Yana bir muhim holat 5-iyun kuni "Abu Saxiy" savdo majmuasida yuz bergan yong'in bo'lib, bu haqda Qalampir.uz sayti xabar tarqatgan. Ushbu voqea savdo markazlarida xavfsizlik masalasi hali ham dolzarb ekanini yana bir bor tasdiqladi.

Mazkur ketma-ketlik yanvar, fevral, mart va aprel oylarida sodir bo'lgan yong'inlar oddiy tasodif sifatida baholanmasligi kerak. Aksincha, bu holat texnik nosozliklar, elektr tizimidagi muammolar, qurilishdagi kamchiliklar yoki yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilinmayotganining belgisi bo'lishi mumkin.

Savdo majmualari kun davomida minglab odamlar tashrif buyuradigan maskandir. Shu sababli bu joylarda yong'in xavfsizligi tizimlari to'liq va uzluksiz ishlashi shart. Signalizatsiya, o't o'chirish vositalari, ventilyatsiya tizimi, evakuatsiya yo'laklari va chiqish eshiklari doimo tayyor holatda bo'lishi kerak. Ayniqsa, favqulodda vaziyatlarda odamlarni tez va xavfsiz olib chiqish imkoniyati hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Agar tekshiruv va nazorat tadbirlari yetarli darajada kuchaytirilmasa, mavjud xavf yanada ortishi mumkin. Ayniqsa, yoz mavsumining issiq kunlarida elektr tarmoqlariga tushadigan yuklama oshadi, bu esa yong'in ehtimolini yanada kuchaytiradi. Demak, zarur choralar ko'rilmasa, bunday hodisalar yoz oylarida yanada ko'payishi ehtimoldan xoli emas.

Shu bois mas'ul tashkilotlar tomonidan shaffof va chuqur tekshiruvlar o'tkazilishi, aniqlangan kamchiliklar tezkor bartaraf etilishi zarur. Savdo majmualari rahbariyati esa xavfsizlikni ustuvor masala sifatida ko'rishi, xodimlarni muntazam tayyorlab borishi va texnik tizimlarni nazorat ostida ushlashi lozim.

Xulosa qilib aytganda, savdo va qurilish obyektlarida kuzatilayotgan yong'inlar jiddiy ogohlantiruvchi signal hisoblanadi. Agar hozirdan boshlab aniq va qat'iy choralar ko'rilmasa, kelajakda bundan ham og'ir oqibatlar yuzaga kelishi mumkin.

Oltin OZODOVA,
O'zJOKU 2-bosqich talabasi

Malaka

Davlat rahbarining Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashining 2025-yil 5-mart kuni o'tkazilgan kengaytirilgan yig'ilishida tergov sifatini oshirish bo'yicha bergan topshiriqlari ijrosini ta'minlash maqsadida Bosh prokuratura tomonidan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

TERGOV sohasida yangi imkoniyatlar

Jumladan, tizimda tergov sifati va samaradorligini yanada yaxshilash maqsadida tergovchilarning kasbiy mahorati va malakasini oshirish, shuningdek ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bu borada amaliy tadbirlar tashkil etilib, ularning navbatdagi O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasida o'tkazildi.

Bosh prokuror o'rinbosari – O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori Q. Isroilov va Bosh prokuraturaning prokuratura organlari tergov tarmoqlari faoliyati ustidan nazorat boshqarmasi boshlig'i A. Imomnazarov Toshkent harbiy prokuraturasida tergovchilarga yaratilgan sharoitlarni ko'zdan kechirdi.

Keyingi tadbirlar O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasida davom etib, mahkama va hududiy harbiy prokuraturalarning barcha xodimlari ishtirokida videokonferens-aloqa tarzida ochiq muloqot va o'quv mashg'uloti o'tkazildi.

Jarayonda tergov harakatlarini samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan, zamonaviy kriminalistik texnik vositalar bilan jihozlangan namunaviy "Tergov portfellari" va "Insta 360" rusumli kameralar topshirildi.

Tadbir davomida o'z xizmat vazifalarini bajarishda namuna bo'lgan bir qator xodimlar rag'batlantirildi.

Shahzod XOLIQOV,
Bosh prokuratura
boshqarma prokurori

Qaror ijrosi

INSON QADRI UCHUN

Bosh prokuror o'rinbosari – O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori Q. Isroilov boshchiligidagi Toshkent shahri prokurorining birinchi o'rinbosari A. Urmanov va Toshkent shahri IIBB boshlig'i R. Sultanxodjayev ishtirokida Bektemir tumani 2-son IIBda kengaytirilgan yig'ilish o'tkazildi.

Tumandagi barcha tashkilot, muassasa va idoralar rahbarlari hamda mas'ullari ishtirok etgan muloqotda Prezidentimizning 2026-yil 5-yanvardagi tegishli qarorlari ijrosi yuzasidan Chashma va Iyk ota mahallalarida amalga oshirilayotgan ishlar ko'rib chiqildi.

Mahallalardagi "yettilik" faoliyati, shuningdek jinoyatlarning barvaqt oldini olish, jamoat tartibini saqlash, raqamlashtirish, bandlik, kommunal muammolar, ta'lim, sog'liqni saqlash, aholi bilan manzilli ishlash, xonadonbay hamda fuqarobay tadbirlarni tizimli tashkil etish va boshqa qator ijtimoiy masalalarga e'tibor qaratildi.

Muhokamalarda mas'ullarning axborotlari eshitilib, mutasaddilar oldiga har bir soha va yo'nalish bo'yicha aniq topshiriq va vazifalar qo'yilib, ijrosi nazoratga olindi.

So'ngra tumandagi barcha mutasaddi tashkilotlar rahbarlari ishtirokida Chashma mahallasi o'rganildi. Jarayonda aholini qiynab kelayotgan ijtimoiy masalalarni xonadonbay va fuqarobay o'rganib, tahlil qilish va hal etish borasida amaliy ishlar olib borildi.

Fuqarolar bilan samimiy va ochiq muloqotlar o'tkazilib, ularning muammolari eshitildi va hal etish yuzasidan mas'ullarga tezkor topshiriq va ko'rsatmalar berildi.

Adliya polkovnigi
Shuhrat ZOIROV,
Chirchiq harbiy prokurorining
yordamchisi

Mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotlarida

Ayni paytda O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Xorazm viloyati kengashi tasarrufidagi Xiva shahri 1-sonli o'quv sport-texnika markazi nodavlat ta'lim muassasasida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni sportning texnik va amaliy turlariga jalb etish hamda ommaviy kasb mutaxassislari tayyorlash borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmogda.



YOSHLAR BARKAMOLLIGI — muhim vazifa



Xususan, bugungi kun talabi asosida malakali haydovchilar tayyorlashga chuqur e'tibor qaratayotgan markaz jamoasining joriy yilning o'tgan oylari mobaynida amalga oshirgan ishlari e'tiborga molikdir. Bunga ko'ra, ommaviy kasb mutaxassislari tayyorlash sifatini oshirish, mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanish borasida yaxshi natijalarga erishildi. Belgilangan "A", "B", "BC" toifali haydovchilar tayyorlash hamda "C", "E" toifalarga qayta tayyorlash yillik rejasi oshig'i bilan bajarildi.

Bundan tashqari, markaz jamoasi yosh avlod qalbida ona Vatanga sadoqat tuyg'ularini shakllantirish, ularni har tomonlama yetuk va barkamol qilib voyaga yetkazish maqsadida yoshlar o'rtasida harbiy-vatanparvarlik, ma'naviy-ahloqiy tarbiyani yuqori saviyada tashkil etish hamda uni

amalga oshirish borasida targ'ibot-tashviqot yuritish tadbirlarini ham muntazam ravishda olib bormogda.

Bugungi kunda markaz qoshida "Havo miltig'idan o'q otish", "Yozgi biatlon" kabi sport seksiyalari faoliyati yo'lga qo'yilgan. Ularda o'ttiz nafarga yaqin iqtidorli yosh o'z malaka va mahoratlarini oshirmogda. Joriy yilning o'tgan

oylari mobaynida bu sportchi yoshlar ishtirokida bir necha bor shahar musobaqalari tashkil etildi.

– Shu kunlarda tashkilotimiz xodimlari tomonidan mamlakatimiz mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan "Yagona Vatan, Yagona xalq bo'lib, Yangi hayot va kelajak yaratamiz!" degan bosh g'oyani o'zida mujassam etgan turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, davra suhbatlari hamda sport musobaqalari o'tkazilmogda, – deydi markaz direktori Allayor Tajiyev. – Xiva shahri hokimligi, IIB JXX YHXX, mudofaa ishlari, maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari, Yoshlar ishlari agentligi bilan hamkorlikda o'tkazilayotgan tadbirlar ham ana shu muhim sanaga bag'ishlanmogda. Bundan tashqari, "Yoshlar oyligi" doirasidagi tadbirlarga ham e'tibor qaratilmogda.

Ayni paytda markaz jamoasi yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, bandligiga ko'maklashish va ularni ijtimoiy himoya qilish maqsadida ham bir qancha ishlarni amalga oshirmogda. Jumladan, "Yoshlar daftari" ro'yxatiga kiritilgan, imtiyoz asosida kasb o'rganayotgan tinglovchilar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratilgan.

Shu kunlarda ham tashkilotda avtomototransport vositalarini mahorat bilan boshqarish, xavfsiz harakatlanish bo'yicha darslar olib borilib, bo'lajak haydovchilarga ham nazariy, ham amaliy tushunchalar berilmogda. Dars mashg'ulotlarining mukammal olib borilishida Semrug' Sultonov, Farida Ismailova, Nilufar Madiyorova, Umidbek Boltayev, Farhod Matchanov singari xodimlarning hissasi katta bo'lmogda.

Shuningdek, sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish borasida ham izlanishlar davom ettirilmogda. Chunki markaz jamoasining maqsadi har jihatdan yetuk va barkamol yoshlarni tarbiyalashdan iborat.



Akbar ALLAMURODOV

Mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotlarida

YUQORI NATIJALAR YANGI marralarga undar

**Ma'lumki, yosh
avlodni ona Vatanga
sadoqat ruhida
tarbiyalash O'zbekiston
Respublikasi mudofaasiga
ko'maklashuvchi
"Vatanparvar"
tashkilotining birinchi
galdagi vazifasidir.
Xususan, tashkilotning
Namangan viloyati
kengashi tasarrufidagi
Yangiqo'rg'on tumani
o'quv sport-texnika
markazi nodavlat ta'lim
muassasasida ham bu
borada ko'plab amaliy
ishlar bajarib kelinmoqda.**

Mushtarak maqsadlar mezoni sifatida o'quv sport-texnika markazi jamoasi tumandagi bir qancha davlat va jamoat tashkilotlari bilan uzviy hamkorlikni yo'lga qo'ygan. Shu bois yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish hamda ularni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunda

albatta, turli mavzularda tashkil etilayotgan ma'naviy-ma'rifiy va sport tadbirlari katta ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, yaqinda markaz jamoasi tashabbusi bilan "Yoshlar oyligi"ga bag'ishlab tuman hokimligi, mudofaa ishlari, Yoshlar ishlari agentligi, Ma'naviyat va targ'ibot markazi tuman bo'limlari bilan hamkorlikda "Navkent" mahalla fuqarolar

Mamlakatimiz kelajagi bo'lgan yoshlarni ma'naviy jihatdan boy, jismonan sog'lom, Vatan himoyasiga shay qilib tarbiyalashda sport muhim o'rin egallaydi. Shu maqsadda sportning texnik va amaliy turlarini aholi orasida keng targ'ib qilish bo'yicha qator ishlar qilindi. Shu kunlarda markaz



qoshidagi “Havo
miltig‘idan o‘q
otish”, “Yozgi
biatlon”, “Karting”
hamda “Motokross”
kabi seksiya va
to‘garaklarimizda ellik
nafarga yaqin iqtidorli yosh
muntazam shug‘ullanib kelmoqda.

Joriy yilning o‘tgan oylari
mobaynida sportning texnik va
amaliy turlarini rivojlantirish
rejasiga asosan, tuman miqyosida
yoshlar ishtirokida bir necha bor
sport musobaqalari tashkil etildi.
Tuman maktabgacha va maktab
ta’limi bo‘limi bilan hamkorlikda
o‘tkazilgan musobaqalarda
mingdan ortiq o‘quvchi-yosh
ishtirok etdi.

Shuningdek, tashkilotga a'zo sportchi yoshlar viloyat va respublika musobaqalarida faol qatnashib, sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritayotgani quvonarli hol. Albatta, egallanayotgan marralar yoshlarni yanada ruhlantirib, o'z ustida ishlashi, shug'ullanishi hamda yanada yaxshi natijalarga erishishiga imkon yaratmoqda.

Tashkilotda ayni paytda “B”, “BC”, “BE”, “CE” toifali haydovchilar tayyorlanmoqda. Bunda albatta, Abduqahhor Akramov, Zafarjon Toshtemirov, Valijon Ibragimov, Sanjar Safoyev, Hamid Normirzayev singari o‘qituvchi va amaliy boshqarishni o‘rgatuvchi-ustalarning xizmatlarini alohida e’tirof etish o‘rinlidir. Shuningdek, mavjud moddiy-texnik baza, avtomobillar parki, avtodrom, o‘quv xonalari, zamonaviy o‘quv-mashq avtomobillari uyg‘unlikda malakali haydovchilar tayyorlash rejasini oshirib bajarish imkonini beryapti.

**Alijon TOJIBOYEV,
“Vatanparvar” tashkiloti
Yangiqo‘rg‘on tumani
O‘STM NTM direktori**



Oromgoh - 2026

QUVONCHGA BOY O'N IKKI KUN

Mudofaa vazirligi tasarrufidagi “Tong” bolalar sog'lomlashtirish oromgohida yozgi mavsumning birinchi bosqichi muvaffaqiyatli yakunlandi. Mamlakatimizning turli hududlaridan kelgan qariyb 300 nafar bolajon uchun ushbu 12 kun nafaqat mazmunli hordiq chiqarish, balki yangi bilim, do'stlik va unutilmas taassurotlarga boy bo'ldi.



Muallif suratga olgan



Oromgohda bolalarning dam olishi, jismoniy faolligini oshirish va ma'naviy dunyosini boyitishga qaratilgan keng qamrovli dastur amalga oshirildi. Har bir kun qiziqarli mashg'ulotlar, sport musobaqalari, ijodiy to'garaklar va madaniy tadbirlar bilan mazmunli tashkil etildi. Ayniqsa, xorijiy tillarni o'rganish bo'yicha o'tkazilgan darslar hamda amaliy mashg'ulotlar ishtirokchilarning katta qiziqishiga sabab bo'ldi. Tajribali pedagoglar va mutaxassislar rahbarligida tashkil etilgan mashg'ulotlar bolalarning bilim va ko'nikmalarini oshirish, ularning iqtidorini yuzaga chiqarishga xizmat qildi.

Shu bilan birga, jamoada ishlash, o'zaro hurmat va do'stlik muhitini mustahkamlashga qaratilgan tarbiyaviy tadbirlar ham muntazam o'tkazildi. Mavsum davomida oromgohda dual ta'lim tizimi asosida ham samarali ishlar amalga oshirildi.

Bu orqali iqtidorli talabalar o'z bilimlarini amaliyot bilan uyg'unlashtirish, kasbiy tajriba orttirish imkoniyatiga ega bo'ldi. Ularning ishtirokida tashkil etilgan mashg'ulotlar ta'lim jarayoni samaradorligini yanada oshirdi.

Mavsumning yopilish tadbiri haqiqiy bayramga aylandi. Unda Mudofaa vazirligi maxsus avariya-tiklash boshqarmasining “Impuls” jamoasi san'atkorlari ijrosidagi kuy-qo'shiqlar yig'ilganlarga ko'tarinki kayfiyat ulashdi. Musiqiy chiqishlar bolalar va ota-onalarga unutilmas onlarni hadya etdi. Tadbirning eng qiziqarli qismi esa bolajonlarning chiqishlari bo'ldi. Ular 12 kun davomida o'zlashtirgan qo'shiq va raqslarini namoyish etib, sahnadagi chiqishlari bilan barchaning olqishiga sazovor bo'ldi.

Milliy va jahon estradasi namunalari asosida tayyorlangan chiqishlar bolalarning iqtidori va

mehnatsevarligini yana bir bor namoyon etdi. Farzandlarining yutuqlarini o'z ko'zi bilan ko'rgan ota-onalar ularning qisqa vaqt ichidagi o'zgarishlari, yangi ko'nikmalarni egallagani va o'zlariga bo'lgan ishonchi ortganidan mamnun ekanini ta'kidladi. Qisqa vaqt ichida ko'plab yaxshi taassurotlar, yangi do'stlar va foydali bilimlarga boy bo'lgan ushbu mavsum ishtirokchilar xotirasida uzoq vaqt saqlanib qolishi, shubhasiz.

“Tong” bolalar sog'lomlashtirish oromgohi esa kelgusi mavsumlarda ham yosh avlodning mazmunli hordiq chiqarishi, qobiliyatlarini rivojlantirishi va vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishiga xizmat qiluvchi tadbirlarni izchil davom ettiradi.

Sherzod SHARIPOV,
“Vatanparvar”



MUASSIS
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MUDOFAA VAZIRLIGI

VATANPARVAR



Tahririyat kengashi:

general-mayor Hamdam Qarshiyev
podpolkovnik Ulug'bek Fattaxov
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – “Vatanparvar” birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:

podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Telefonlar:

kotibiyat: 55 511-25-90
buxgalteriya: 55 511-25-76
yuridik bo'lim: 55 511-25-72

Navbatchi: leytenant Mansurbek Jabborov

Sahifalovchi: Tohirjon Turg'unboyev

Musahhih: Sayyora Mirzayeva

Buyurtma: V-6146

Hajmi: 6 bosma taboq

Bichimi: A3

Adadi: 33 769 nusxa

Bosishga topshirish vaqti: 14:00

Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “O'zbekiston” NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.

Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqqa boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.

Bahosi: kelishilgan narxda.

“O'zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani Sag'bon ko'chasi, 382-uy.

@Vatanparvargazetasi_bot
“Vatanparvar” birlashgan
tahririyati bilan bog'lanish
uchun telegram bot



BIZ HAQIMIZDA



www.mudofaa.uz



t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi



www.mv-vatanparvar.uz
vatanparvar-bt@gmail.uz



mudofaavazirligi



mudofaavazirligi



www.youtube.com/c/UzArmiya